Dori vositasining biologik samaradorligini;
Dori moddalarning farmakokinetik ko‘rsatkichlarini;
Dori moddalarning embiotoksik va teratogenligini;
Dori moddalarning immunomodulyatorlik xususiyatlarini;
Dori moddalarning farmakodinamikasini;
Dori moddalarning nojo‘ya ta’sirlarini va uni oldini olishni.

**Modulni yakunlanganda talaba bajara oladi:**

Retsept yoza oladi
Dori moddasining allergik va kumulyativ ta’sirini biladi;
Dori vositalarining nojo‘ya ta’sirlarini tahlil qilish biladi;
Dori vositalarini qo‘shib ishlatiladigan dori vositalarini tahlil qila oladi ;
Dori moddalarning ovqat bilan munosabatini ajrata oladi;
Dori moddalarning xronofarmakologik jarayonlariga aloqasini tushuntira oladi
Dori moddalarning nojo‘ya ta’sirlarini va uni oldini olishni biladi
MNS ta’sir etuvchi dorilarning tasniflay oladi
Periferik nerv tizimiga ta’sir etuvchi dorilarning tasniflay oladi.
Yurak qon tomir tizimiga ta’sir etuvchi dori vositalarining ta’sirini biladi;
OIT ta’sir etuvchi dorilarning tasniflay oladi, vositalarining ta’sirini biladi
Bachadon faoliytiga ta’sir etuvchi dorilarning tasniflay oladi, vositalarining ta’sirini biladi
Oshqozon osti bezigaga ta’sir etuvchi dorilarning tasniflay oladi, vositalarining ta’sirini biladi
Antimikrob dorilarning tasniflay oladi, vositalarining ta’sirini biladi

**1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar**

| | |
|---|---|
| **O‘quv dasturining nomi** | **Farmakologiya asoslari** |
| **Ajratilgan soat** | **:240( auditoriya soati:80, amaliy: 160, mustaqil talim 120 ) Kredit soni: 10** |
| **Mavzular soni** | 17 ta |
| **Dasturning maqsadi** | farmatsiya sohasida bilim olayotgan o‘quvchilarning kasalliklarni oldini olish va davolash uchun dorilarni dozalari va qo‘llash usullari bo‘yicha bilimlarini shakllashtirish,zamin yaratish. |
| **O‘zlashtirish ( o‘kitish ) natijalari** | farmakologiya fanining tarixiga oid qisqacha ma’lumot, farmakologiya va uning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi;<br>farmakopeya haqida tushuncha, dori moddalarini izlab topish yo‘llari;<br>dori miqdori belgilari;<br>umumiy dorinoma (reseptura), dori shakllari<br>reseptning ahamiyati, resept yozish qoidasi. Dorixona va uning vazifalari;<br>farmakokinetika, farmakodinamika va farmakologik effekt;<br>davolash turlari, dori vositalarining yuborish yo‘llari va ta’siri;<br>dori moddalarining o‘zaro ta’siri va mos kelish-kelmasligi;<br>afferent va efferent innervasiyaga ta’sir qiladigan vositalarining farmakokinetika , farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>markaziy asab sistemasiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>nafas a’zolari funksiyasiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>yurak-tomir tizimiga ta’sir qiladigan va diuretik vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>hazm a’zolari tizimiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>miometriy tonusiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>qon tizimiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, |

| | |
|---|---|
| | farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>to‘qima almashinuvi jarayoniga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>mikroblarga qarshi vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>blastomalarga qarshi vositalarning farmakokinetika, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>immun jarayonlariga, allergiya va yallig‘lanishga qarshi vositalarning farmakokinetikasi, farmakodinamikasi va farmasevtik yordam;<br>biologik faol vositalar, fitoterapevtik vositalar;<br>dori moddalaridan o‘tkir zaharlanishlarda tez yordam tamoyillari malakalariga ega bo‘lishi kerak. |
| **Bilim** | farmakologiya fani haqida tushunchani, tarixi va rivojlanishi, maqsadi va vazifalarini;<br>farmakologiya fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini<br>dori vositalarini yaratish yo‘llari va ularni Farmakopeyaga kiritishni;<br>soha standarti -farmakopeyani;<br>doza haqida tushunchani va dozani hisoblashni. |
| **Ko‘nikma** | “Farmakologiya asoslari” fani dori preparatlari bilan ishlash, ularni maxsus guruhlarga ajratish,ular bilan turli kasalliklarni davolash va oldini olishda foydalanish, dorilarni saqlash, bemorlarga tez tibbiy yordam ko‘rsatish yo‘l-yo‘riqlariga tavsif berish fanlaridan hisoblanadi.<br>Farmakologik preparatlarning DF bo‘yicha chiqarilish shakllari va dozalarini aniqlash , vaziyatli masalalar yordamida ularni qo‘llash , “A”, “V” guruhga xos bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlar ro‘yxatini tuzish, asoratlarni ko‘zda tutish. |
| **O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bogliq bo‘lgan fan nomi** | farmakologiya asoslari fani, farmasevtik terminologiya va lotin tili,dori turlari texnologiyasi, farmakognoziya va botanika asoslari, farmasevtik kimyo fanlari bilan uzviy bog‘liq. |
| **O‘qitishni tashkiliy shakli** | N – nazariy ta’lim;<br>A – amaliy ta’lim;<br>MX – maxsus xonalarda mashg‘ulot. |
| **Dasturga qo‘yilgan talab** | Majburiy |
| **O‘qitish tili** | Guruhga tayinlangan dars tili asosida(rus va o‘zbek ) |
| **Baholash tartibi** | Joriy,oraliq nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslanadi. |
| **O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash** | Yozma, og‘zaki , savol - javob , munozara , test , amaliy topshirik. |

## 2.O‘quv dasturi mazmuni

| № | Mavzuniing nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O‘ qitish ning tashki | Mustaqil ta’ lim |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | Farmakologiya fanining tarixi va boshqa fanlar bilan boglikligi . Farmakopeya xaqida tushuncha . Dori moddalarini izlab topish yo’llari.Dori miqdori belgilari. | Farmakologiya–dori darmon ta’limoti. Farmakologiya fani taraqqqiyotida jahon olimlari va boshqa olimlarning ijod faoliyati.Farmakologiya asoslarifani turli xil kasalliklar hamda patologik jarayonlarini davolashda va oldini olishda dori vositalarining xususiyatlari, ta’sir mexanizmi.Fanning vazifasi yangi samarali vositalarni izlab topish va tibbiyot amaliyotiga tadbiq etish.Farmakologiya fanining Eksperimental farmakologiya, klinik farmakologiya, farmakognoziya, farmximiya, dori tayyorlash texnologiyasi, lotin tili, anatomiya va fiziologiya asoslari va boshqa fanlar bilan bog‘liqligini o‘rganish.<br>Farmakopeya tibbiyot va farmatsiya qoidalarining qonun majmuasi, davlat miqqiyosidagi qonunlar yig‘indisi (kodeksi). Farmakopeya dori moddasini sifatini aniqlovchi, namunalar (sandartlar)ni yig‘indisi. Davlat Farmakopeyasidagi “A” zaharli va “B” kuchli ta’sirga ega bo‘lgan dorilar ro‘yxati. Dori moddalarini izlab topish yo‘llari va uning tasnifi. Dorivor o‘simliklardan, hayvonlardan va kimyoviy yo‘l bilan olinadigan dorivor moddalar. Doza haqida tushuncha. | **2** | **N-2** | **2** |
| **2.** | Umumiy dorinoma (reseptura ) Dorixona va uning vazifalari. | O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-dekabrdagi PQ-4554-son “O‘zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog‘ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori | **12** | **N-4<br>A-8** | **6** |
| **3.** | Dori shakllari. | Dori shakllari va ularning tasnifi:<br>qattiq, suyuq, yumshoq va inyeksiya uchun ishtiladigan dori shakllari, ularning ta’rifi va tasnifi, ularga resept yozish qoidalari. | **22** | **N-6<br>A-16** | **10** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Qattiq dori shakllari: tabletka, draje, poroshok kapsulalar bilan tanishish va ularga resept yozish.<br>Suyuq dori shakllari: eritmalar, suspenziyalar, emulsiyalar, damlama, qaynatma, ekstraktlar, nastoykalar, miksturalar, tomchilar, novogalen preparatlari bilan tanishish va ularga resept yozish.<br>Inyeksiya uchun ishlatiladigan dori shakllari bilan tanishish, ularga qo‘yiladigan talablar va resept yozish qoidalarini bajarish. Ampula va flakonlarda chiqariladigan inyeksiya uchun dori shakllari bilan tanishish.<br>Yumshoq dori shakllari: mazlar, pastalar,sham dorilar, linimentlar bilan tanishish va ularga resept yozish | | | |
| **4.** | Farmakokinetika va uning asosiy negizlari. Dori vositalarini yuborish yullari va ta’sirini urganish . Far-makodinamika . Davolash turlari. | Dori moddalarini organizmga yuborish yo‘llari.Dori moddalarini organizmda to‘planishi (kumulyasiya).<br>Dori moddalarining organizmga ta’sir turlari.<br>Dor moddalarining organizmda reseptorlar bilan bog‘lanishi,<br>Organizmdagita’sir mexanizmini, farmakologik ta’sirning fizik va fizik–kimyoviy xossalarga, dozasi va konsentrasiyasiga bog‘liqligi. | **10** | **N-2<br>A-8** | **8** |
| **5.** | Farmakologik effekt. Dori moddalarining o’zaro ta’siri va mos kelish – kelmasligi . | Farmakologik effektni dori moddaning kimyoviy tuzilishi va boshqa omillar bilan bog‘liqligi. Biologik standartizasiya haqida tushuncha va vazifasi.<br>Dori vositalarini o‘zaro ta’sir mexanizmi. Dori moddalarini birga yuborganda bir biriga mos kelmasligi. Dori vositalari ta’sirining turlari. Farmakologik effektni dori moddaning kimyoviy tuzilishi bilan bog‘liqligi, farmakologik effektda jinsning ahamiyati, yoshning ahamiyati, tananing og‘irligi, genetik omillari, organizmning patologik holatini o‘rganish. Organzmdagi muhit, ovkatlanishni ahamiyati, bir kecha kunduzlik davr haqida ma’lumotga ega bo‘lish va kundalikka qayd qilish. Molekulalarning teng elektronlarga ega bo‘lgan holda birikishi,tirik hujayradagi molekula atomlari bilan birikishi, vodorod bog‘lanishi, ion va ion-depol bog‘lanish, zanjirli reaksiyani o‘rganish.Biologik | **6** | **N-2<br>A-4** | **6** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | standartizasiya o‘tkazish jarayoni va utkazish uchun hayvonlardan foydalanish usullarini o‘rganish. Biologik standartizasiyaning asosiy vazifasi, biologik namunalashni hayvonlarda, mikroorganizmlarda aniqlanishi. TB, BTB, MTB, KTB va olingan natijalarini kundalikka qayd qilish.<br>Dori vositalarini o‘zaro ta’sir mexanizmini o‘rganish. Dori moddalarini birga yuborganda bir biriga mos kelmasligi, organizmda kimyoviy o‘zgarishlarga uchrashini o‘rganish va 191-sonli buyruq asosida bir-biriga zid bo‘lgan dori vositalarini qayd etish va yod olish. Dori vositalari ta’sirining turlari haqida ma’lumotga ega bo‘lish. Maxalliy, rezorbtiv, salbiy ta’sirlariga misollar keltirish va ularni ta’sir mexanizmini qayd etish. | | | |
| **6.** | Afferent innervasiyaga ta’sir kiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi | Afferentinnervasiya haqida tushuncha, tasnifi va gurux preparatlarining nomlanishi, qo‘llanilishi va ta’siri.<br>Afferent innervasiyaga ta’sir qiluvchi dori vositalarining farmakokinetikasi, farmakodinamikasi. Preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari.<br>Anesteziya qiluvchi vositalari: novokain, lidokain, dikain va anestezin.<br>Burishtiruvchi vositalar: eman po‘stlog‘i qaynatmasi, shalfey bargi damlamasi, moychechak guli damlamasi, dermatol, kseroform, achchiqtosh.<br>O‘rab oluvchi vositalardan kraxmal va zig‘ir urug‘i shilimshiqlariga; adsorbiyalovchi vositalardan aktivlangan ko‘mir, karbolen, oq gil va smekta.<br>Ta’sirlantiruvchi vositalardan: kamforaning spirtdagi eritmasi, mentol, achchiq qalampir nastoykasi, ammiak eritmasi va menovazin preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. | **16** | **N-4<br>A-12** | **4** |
| **7.** | Efferent innervasiyaga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika | Efferent innervasiya va sinaps haqida tushuncha, ularning tasnifi. Xolinergik sinapslarga ta’sir qiladigan moddalar tasnifi, ko‘llanilishi va ta’siri. | **16** | **N-4<br>A-12** | **4** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | va farmakodinamikasi | Simpatolitik preparatlar. Qo‘llanilishi va salbiy ta’sirini o‘rganish.<br>Xolinergik va adrenergik sinaps sohasiga ta’sir qiluvchi dori vositalarining farmakokinetikasi va farmakodinamikasini o‘rganish. M-xolinomimetiklardan - pilokarpin gidroxlorid, aseklidin; N-xolinomimetiklardan: sititon, lobelin gidroxlorid, antixolinesreza moddalaridan prozerin, galantamin gidroxlorid va neyromidin preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.<br>M-xolinoblokada qiluvchi moddalardan atropin sulfat, preparatlarga resept yozish; belladonna nastoykasi, ekstrakti, skopolamin gidrobromid va platifillin gidrotartrat, “Aeron” tabletka preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish N-xolinoblokada qiladigan preparatlar: benzogeksoniy, pentamin, gigroniy, pirilen, temexin, kvateron preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.<br>Kuraresimon vositalar: tubokurarin xlorid, diplosin, melliktin, ditilin, dioksoniy preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.<br>Adrenomimetik moddalardan mezaton, naftizin, noradrenalin gidroxlorid, galazolin, adrenalin gidroxlorid, efedrin gidroxlorid, izadrin, salbutamol astmopent, alupent preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Adrenoblokada qiladigan moddalar: fentolamin, tropafen, pirroksan, prazozin preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. β-adrenoblokatorlar: anaprilin. Simpatolitiklar:oktadin, rezerpin, raunatin, ornid, metildofa preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish, ularning qo‘llanilishi va salbiy ta’siri, vaziyatli masalalar yordamida ularni qo‘llash va mo‘nelik holatlarini o‘rganish, preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **8.** | Markaziy asab sistemasiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Narkoz uchun ishlatadigan moddalar. Qo‘llanilishi va yuborish yo‘llari. Etil spirti. Qo‘llanilishi. Spirt bilan o‘tkir zaharlanish va yordam berish. Etil spirtidan xronik zaharlanish va uni davolash.Uxlatadigan vositalar. Ularning tasnifi,qo‘llanilishi.Uxlatadigan dorilardan o‘tkir zaharlanish va bunday hollarda ko‘rsatiladigan birinchi yordam.<br>Talvasaga qarshi moddalar. Ularning tasnifi, epilepsiyaga qarshi vositalar. Parkinsonizmga qarshi vositalar. Ularning tasnifi va ishlatilishi.<br>Analgeziya qiladigan vositalar. Qo‘llanilishi, salbiy ta’sirini o‘rganish. Zaharlanganda birinchi yordam.<br>Psixotrop vositalar. Neyroleptiklar. TrankvilizatorlarSedativ vositalar. Antidepressantlar.<br>Psixostimulyatorlar.Nootrop vositalar. Analeptiklar.<br>Markaziy asab tizimiga ta’sir qiladigan preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarning dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Narkoz uchun ishlatadigan moddalar va uning turlarini o‘rganish. Ingalyasion narkoz moddalari: efir, ftorotan, azot oksidi preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Narkozning to‘rt bosqichida kuzatiladigan bemorning xolatlarini o‘rganish. Narkozdan keyin yuz beradigan asoratlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish va qayd etish.<br>Noingalyasion narkoz moddalari: rekofol, tiopental natriy, propanidid, geksanal, natriy oksibutirat preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.Ularning ingalyasion narkoz moddalaridan farqlarini aniqlash va qo‘llanilishi va yuborish yo‘llarini o‘rganish.<br>Etil spirtining markaziy asab tizimiga, hazm qilish organlariga, teriga, shilliq pardalarga, mikroblarga qarshi ta’sirini | **16** | **N-4<br>A-12** | **8** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘rganish. Spirt bilan o‘tkir zaharlanish va yordam berish choralarini qo‘llash. Etil spirtidan xronik zaharlanish va uni davolashni o‘rganish. Alkogolizmda ishlatiladigan preparatlar: teturam, esperal, metronidazol preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.<br>Uxlatadigan vositalar: fenobarbital, barbamil, nitrazepam, metakvalon preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish.Ularning tasnifi, qo‘llanilishi. Uxlatadigan dorilardan o‘tkir zaharlanish va bunday hollarda ko‘rsatiladigan birinchi yordam bilan tanishish.<br>Talvasaga qarshi moddalar, ularning tasnifi. Epilepsiyaga qarshi vositalar: difenin, karbomazepin, benzonal, etosuksemid, benzobamin preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Parkinsonizmga qarshi vositalar: levodopa, midantan, siklodol. Ularning tasnifi va ishlatilishi bilan tanishish va preparatlarni qayd qilish.<br>Narkotik analgetiklar: morfin gidroxlorid, omnopon, promedol preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Narkotik analgetiklarning ta’sir xususiyatlari. Morfinning markaziy asab tizimiga ta’siri, qo‘llanilishi, morfinga o‘rganib qolish. Ko‘knori dorilari - omnopon. Narkotik analgetiklar bilan o‘tkir zaharlanish (morfinizm). Zaharlanganda birinchi yordam ko‘rsatish choralarini o‘rganish. Narkotik analgetiklarning antagonistlari (nalorfin gidroxlorid).<br>Narkotik bo‘lmagan analgetiklar: analgin, parasetamol, butadion, baralgin, reopirin, ketonal preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Ularning og‘riq qoldiruvchi va yallig‘lanishga qarshi, haroratni pasaytirish xususiyatlari. Qo‘llanilishi, salbiy ta’sirini qayd qilish.<br>Neyroleptiklar: aminazin, triftazin, droperidol, etaperazin, galoperidol, frenolon preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Umumiy tasnifi. Antipsixotik va tinchlantiruvchi xususiyatlari. Dorilarning ta’siri, qo‘llanishi.<br>Trankvilizatorlar: sibazon, elenium, xlordiazepoksid, fenozepam, mezopam. Ularning ishlatilishi va tasnifi. Sedativ vositalar: natriy bromid, valeriana damlamasi, valeriana nastoykasi, korvalol, bromkamfora, kaliy bromid, mikstura kvatera, valokordin, arslonquyruq nastoykasi<br>preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rgan<br>o‘rganish.Ularlarning qo‘llanilishi va ta’sirini o‘rganish.<br>Antidepressantlar: amitriptillin, grandaksin, ataraks, pirazidol, nialamid preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Depressiya holati davomida ishlatiladigan vositalar. Ular haqida umumiy tushuncha..<br>Psixostimulyatorlar: fenamin, kofein, meridil preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Ularning ta’siri, qo‘llanilishi va kundalikka qayd qilish.<br>Nootrop vositalar: nootropil, pirasetam, ensefabol, aminalon, serebrozilin, noofen preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Ularning ta’siri, qo‘llanilishi.<br>Analeptiklar: kofein benzoat natriy, kordiamin, etimizol, kamfora, sulfokamfokain, bemegrid preparatlarining dozasini aniqlash va resept yozishni o‘rganish. Ularning umumiy tasnifi. Markaziy asab tizimiga ta’sirini o‘rganish. Kofein va kamforaning yurak-qon tomirlariga ta’siri, kamforaning mahalliy ta’siri, dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **9.** | Nafas a’zolari funksiyasiga ta’sir kiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Nafas stimulyatorlari. Dorilarning ta’sir qilish xususiyatlari qo‘llanilishi. Yo‘talga qarshi vositalar. Ularning ta’siri va qo‘llanilishi.<br>Balg‘am ko‘chiradigan vositalar. Guruhlariga tavsif, dorilarning ta’sir qilish xususiyatlari.<br>Bronxolitik vositalar, ularning asosiy guruhlari | **12** | **N-4<br>A-8** | **10** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | O‘pka shishi haqida tushuncha va uni davolashda qo‘llanadigan dori vosita-lari.<br>Nafas a’zolari faoliyatiga ta’sir qiladigan preparatlarning terapevtik dozalari,qo‘llanishi, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish:<br>Nafas stimulyatorlari: kordiamin, kofein benzoat natriy, etimizol, lobelin gidroxlorid, sititon, bemegriddorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish.<br>Yo‘talga qarshi vositalar - kodein fosfat, kodelak, terpinkod, libeksin, bronxolitin, tusupreks, bromgeksin, glausin gidroxlorid, ko‘krak eliksiri dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish.<br>Balg‘am ko‘chiradigan vositalar: termopsis o‘tidan damlama va qaynatma, “Ot kashlya”, mukaltin, mukobron, tripsin, pektussin, terpingidrat, kaliy yodid.<br>Bronxolitik vositalar, ularning asosiy guruhlari. Preparatlar: izadrin, salbutamol, berotek adrenalin gidroxlorid, efedrin gidroxlorid, atropin sulfat, eufillin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **10.** | Yurak – qon tomir tizimiga ta’sir ki-ladigan va diuretik vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Yurak glikozidlari.Umumiy tasnifi va qo‘llanilishi. Aritmiya haqida tushuncha, turlari va preparatlari. Toj - tomirlar yetishmovchiligida qo‘llaniladigan vositalar. Gipertoniya kasalligi haqida tushuncha<br>Gipotenziv vositalarning tasnifi. Diuretik vositalar. Diuretik vositalarning tasnifi, ko‘llanilishi.<br>Yurak qon tomir tizimiga ta’sir qiladigan preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Yurak glikozidlari: digitoksin, digoksin, strofantik K, selanid dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Yurak glikozidlari saqlovchi preparatlar, ularning olinishi, kumulyativ xususiyatlarini va dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.Tez ta’sir qiladigan vositalar: | **14** | **N-6<br>A-8** | **8** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | strofantik K, korglikon, marvaridgul nastoykasi dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish va signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Aritmiyaga qarshi vositalar - novokainamid, anaprilin, verapamil, panangin, izadrin, kaliy preparatlari(kaliy xlorid, kaliy orotat, asparkam) larning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Toj tomirlar yetishmovchiligida qo‘llaniladigan vositalar: nitrong, nitrogliserin, trinitrolong, validol, sustak, preduktal, erinit, kurantil, verapamil, korinfar, kordaron, no-shpa dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Gipotenziv vositalar: klofelin, kapoten, rezerpin, anaprilin, dibazol, magniy sulfat, norvaks, papaverin gidroxlorid, benzogeksoniy dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Diuretik vositalar: gipotiazid, laziks, indap, furosemid, spironalakton, mannit, triamteren preparatlarga resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish | | | |
| **11.** | Hazm a’zolari tizimiga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Ishtahaga ta’sir qiladigan vositalar, ularning xossalari va qo‘llanilishi. Me’da shirasi sekresiyasi oshganda qo‘llaniladigan vositalar.Me’da shirasi sekresiyasi pasayganda qo‘llaniladigan vositalar.Antasid vositalar.Me’da- ichak yo‘llari xarakatiga ta’sir qiladigan vositalar.Qustiradigan va qusishga qarshi vositalar. O‘t haydaydigan vositalar. Me’da osti bezining tashqi sekretor funksiyasi buzilganida qo‘llaniladigan vositalar. Surgi vositalari. Ularning qo‘llanilishi va ta’siri.<br>Hazm a’zolari faoliyatiga ta’sir qiluvchi preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Ishtahaga ta’sir qiladigan vositalar: ermon nastoykasi, ziravorlar, fepranon, dezopimon dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. | **20** | **N-8<br>A-12** | **10** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Me’da shirasi sekresiyasi oshganda qo‘llaniladigan vositalar: ranitidin, famosidin, maaloks, beladonna ekstrakti, magniy oksidi, almagel, alyumag, omez dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Me’da shirasi sekresiyasi pasayganda qo‘llaniladigan vositalar: suyultirilgan xlorid kislota, pepsin, asedin-pepsin, natural me’da shirasi, festal, mezim, kreon dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Antasid dori vositalari: natriy gidrokarbonat, alyuminiy gidrooksid, almagel, maaloks, alyumag dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Me’da ichaklar xarakatiga ta’sir etuvchi vositalar: atropin sulfat, papaverin gidroxlorid, no-shpa, pirelen, prozerin, aseklidin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Qustiradigan va qusishga qarshi vositalar: apomorfin gidroxlorid, rux, mis sulfat, «Aeron», etaperazin, skopolamin, galoperidol, serukal, metaklopromid, termopsis dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>O‘t haydaydigan vositalar: degidroxolat kislota, oksafenamid, alloxol, xolosas, xolenzim, lif-52, atropin sulfat, papaverin gidroxlorid, magniy sulfat dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Me’da osti bezining tashqi sekretor funksiyasi buzilganda qo‘llaniladigan vositalar: pankreatin, kontrikal, trasilol dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Surgi vositalar: magniy sulfat, kastor moyi, regulaks, gutalaks, dyufalak, rovoch ildizi kukuni, itjumrut ekstrakti, sano bargi damlamasi, senadeksin dorilarning qo‘llanilishi,resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qayd etish. Ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **12.** | Miometriy tonusiga ta’sir kiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Miometriyni ritmik va tonik qisqartiruvchi preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Miometriyni ritmik va tonik qisqartiruvchi vositalarni o‘rganish. Tug‘ruq faoliyatini stimulyasiya qilishda qo‘llaniladigan vositalarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish<br>Miometriyni ritmik va tonik qisqartiruvchi preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Miometriyni ritmik va tonik qisqartiruvchi vositalarni o‘rganish. Tug‘ruq faoliyatini stimulyasiya qilishda qo‘llaniladigan vositalar: oksitosin, pituitrindorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Bachadondan qon ketganda qo‘llaniladigan vositalar: ergometrin maleat dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Bachadon tonusini susaytiruvchi vositalar: vitamin Ye, progesteron, propedil dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Bachadon tonusi va qisqarishiga ta’sir qiluvchi vositalarning xususiyatlari va qo‘llanilishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | **12** | **N-4<br>A-8** | **6** |
| **13** | Qon tizimiga ta’sir qiladigan vosita-larning farmako-kinetika va farma-kodinamikasi. | Qon tizimiga ta’sir qiladigan preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishini o‘rganish.<br>Eritropoezga ta’sir qiladigan vositalarning qo‘llanilishi.<br>Eritrositlarning kamayganida kuzatiladigan xolatlarni (anemiya)o‘rganish.<br>Leykopoezga ta’sir etuvchi vositalarning qo‘llanilishi.<br>Qon ivish jarayoniga ta’sir qiladigan vositalar. Qon ivishini oshiradigan vositalar.<br>Qon ivishiga to‘sqinlik qiladigan vositalar. | **14** | **N-6<br>A-8** | **8** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Qon tizimiga ta’sir qiladigan preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishini o‘rganish. Eritropoezga ta’sir qiladigan vositalar: ferropleks, ferrumlek, maltofer, tardiferon, folat kislota, sianokobalamin, ferkofen, totema, globeks, ginotardiferon, kosmofer, ferkayl dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Eritrositlarning kamayganida kuzatiladigan xolatlarni (anemiya) o‘rganish. Leykopoezga ta’sir etuvchi vositalar: natriy nukleinat, pentoksil, metilurasil, vitamin V6 dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Qon tarkibida leykositlarni kamayganida kuzatiladigan xolatlarni (leykopeniya, aleykiya, leykoz) o‘rganish<br>Qon ivish jarayoniga ta’sir qiladigan vositalar.Qon ivishini oshiradigan vositalar — koagulyantlar: vikasol, trombin, kalsiy xlor, kalsiy glyukonat, disinon dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Fibrinoliz ingibitorlari: aminokapronat kislota, kontrikal. Qon ivishiga to‘sqinlik qiladigan vositalar — antikoagulyantlar: geparin, neodikumarin, sinkumar, fibrinolizin, fraksiparin, kardiomagnil dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish | | | |
| **14** | To’qima almashinuvi jarayoniga ta’sir qiladigan vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | To‘qima almashinuvi jarayoniga ta’sir qiladigan preparatlarning tasnifi, ta’rifi, terapevtik dozalari, qo‘llanilishi.Gipofiz, qalqonsimon bez, paraqalqonsimon bez , buyrak usti bezi , ayol jinsiy va erkak jinsiy gormon preparatlari qo‘llanilishi.Vitamin preparatlari ta’rifi,tasnifi, axamiyatinio‘rganish. Suvda va yog‘da eriydigan vitaminlarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish.<br>To‘qima almashinuvi jarayoniga ta’sir qiladigan preparatlarning tasnifi, ta’rifi, | **18** | **N-6 A-12** | **10** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Gipofiz oldingi bo‘lagi gormon preparatlari: kortikotropin, somatotropin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Gipofiz orqa bo‘lagi gormon preparatlari: oksitosin, pituitrin. vazopressin, adiurekrin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.Qalqonsimon bez gormon preparatlari: tireoidin, merkazolil, diyodtirozin, triyotironin,eutiroks (50, 75, 100, 125, 150mg) dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Paraqalqonsimon bez gormon preparatlari: kalsitonin, paratireodin.<br>Me’da osti bezi gormon preparatlari: insulin inyeksiya uchun, protamin rux insulin, insulatard, insuman, butamid, bukarbon, maninil, glibutid, siofor, amaril dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Buyrak usti bezi gormon preparatlari. Glyukokortikoidlar: gidrokortizon asetat, prednizolon, dermazolon, deksometazon, oksikord sinalar, lorinden, triamsinalon dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Mahalliy qo‘llaniladigan glyukokortikoidlar. Mineralokortikoidlar: dezoksikortikosteron asetat dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Ayol jinsiy gormon preparatlarining ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish. Estrogenlar: sinestrol, dietilstilbestrol, follikulin, estron. Gestogenlar: progesteron, pregnin, turinal, oksiprogesteron dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Kontraseptiv vositalar ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish: regividon, Diane-35, regulon, novinet, trikvilar, yarina dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Erkak jinsiy gormon preparatlari: testosteron propionat, | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | metiltestosteron, testenat, proviron. Anabolik steroidlar: metandrostenolon, fenobolin, retabolil dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Vitamin preparatlari ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish. Suvda eriydigan vitaminlar: tiamin bromid, riboflavin, piridoksin gidroxlorid, nikotinat kislota, sianokobalamin, folat kislota, askorbinat kislota dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Yog‘da eriydigan vitaminlar: retinol asetat, ergokalsiferol, vigantol, akva D-trim, vikasol, tokoferol dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Ishqoriy va ishqoriy yer metallarining tuzlari: natriy xlorid, kaliy xlorid, kalsiy xlorid, magniy sulfat, Ringer-Lok eritmasi, poliglyukin, reopoligyukin, glyukoza dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **15** | Mikroblarga qarshi vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Mikroblarga qarshi vositalarning umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilish tamoyillari.Antiseptik va dezinfeksiya qiluvchi vositalar tasnifi, xossalari va qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri va birinchi yordam choralari.Pedikulyozga qarshi vositalar. Bit va qo‘tir kanasiga qarshi vositalar umumiy ta’rifi, tasnifi, xossalari, qo‘llanilish tamoyillari. Antibiotiklar, tasnifi, xossalari, qo‘llanilishi, nojo‘ya ta’siri va birinchi yordam choralari. Sulfanilamid vositalarning ta’sir doirasi, ishlatilishi, asorati va ularni oldini olish yo‘li. Har xil kimyoviy tuzilishga ega bo‘lgan dori moddalari. Silga qarshi asosiy va rezerv vositalar. Zahmga qarshi vositalar. Viruslarga qarshi vositalar. Zamburug‘larga qarshi vositalar.Bezgakka qarshi vositalar. Gijjalarga qarshi vositalarning umumiy xususiyatlari, qo‘llaniladigan vositalar. | **16** | **N-8 A-8** | **8** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Mikroblarga qarshi vositalar ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish. Silga, spiroxetozga, viruslarga, bezgakka, amyobalarga, zamburug‘larga, bit va qo‘tir kanasiga va gijjalarga qarshi preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishini o‘rganish. Galogen tutuvchi moddalar: xloramin B, xlorli oxak yod, yodinol, yodning spirtli va Lyugol eritmasi dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Oksidlovchilar (suyultirilgan vodorod peroksid eritmasi, kaliy permanganat) va metallarning tuzlari: simob dixlorid, kumush preparatlari: kumush nitrat, protorgol, rux sulfat va rux oksid dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Aromatik qator antiseptiklari: sof fenol, ixtiol.Formaldegid gruppasi: formaldegid eritmasi, formalin. Nitrofuran unumlari: furasillin. Bo‘yoklar: brilliant yashili, metilen ko‘ki, etakridin laktat. Detergentlar: diosid. Kislota va ishqorlar: borat kislota, ammiak eritmasi dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Pedikulyozga qarshi vositalar ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish Bit va qo‘tir kanasiga qarshi vositalar: nittifor, pedilin, antibit dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Antibiotiklar ta’rifi, tasnifi, axamiyatini o‘rganish. Penisillinlar: benzilpenisillin preparatlari, bisillinlar, oksasillin, ampisillin trigidrat dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Sefalosporinlar: sefaleksin, sefamizin, kefzol, klaforan. Makrolidlar: eritromisin, makropen, azitromisin, tetrasiklin gidroxlorid, levomisetin. Aminoglikozidlar: streptomisin sulfat, gentamisin sulfat, neomisin sulfat, kanamisin sulfat dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Turli guruhlarga kiruvchi antibiotiklar: linkomisin gidroxlorid, | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | polimiksin M-sulfat preparatlarining ishlatilishi va ta’sirini o‘rganish.<br>Sulfanilamid vositalar: sulfadimezin, norzulfazol, streptosid, sulfasil natriy, urosulfan, baktrim, biseptol, ftalazol, sulgin, sulfadimetoksin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Har xil kimyoviy tuzilishga ega bo‘lgan dori moddalari. Nitrofuran va 8-oksixinolin unumlari: furadonin, furazolidon, nitroksolin preparatlarining ishlatilishi va ta’sirini o‘rganish. Silga qarshi asosiy va rezerv vositalar. Streptomisin sulfat, kanamisin, rifampisin, sikloserin, ftivazid, izoniazid, mikobutol,<br>PASK dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Zahmga qarshi vositalar. Benzilpenisillin preparatlari, bisillinlar, bisinol. Viruslarga qarshi vositalar. Oksolin, remantadin, arbidol, bonafion, interferon, antigrippinning ishlatilishi.Trixomonozni va lyambliozni davolashda qo‘llaniladigan vositalar: metronidazol, tinidazol, trixomonasid, furazolidon dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Amyobali dizenteriyani davolash uchun ishlatiladigan antibiotiklar. Amyobalarga qarshi vositalar. Emetin gidroxlorid, xiniofon, metronidazol, tinidazol. Zamburug‘larga qarshi vositalar, levorin, nistatin, grizeofulvin, mikoseptin, binofin, diflyukan, flukanazol 50, 150, 200 mg dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Bezgakka qarshi vositalar. Xloridin, primaxin dorilarning qo‘llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish.<br>Ichak nematodlarida qo‘llaniladigan vositalar. Ichak sestodlarida qo‘llaniladigan vositalar: gelmintoks, levomizol, vermoks, pirantel, dekaris, fenosal, xloksil, erkak paporotnigining quyuq ekstrakti, zentel, kyurevorm, antigelmint. Ulardan zaharlanish | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| **16** | Blastomalarga qarshi vositalar. Immun jarayonlariga, allergiya va yalliglanishga qarshi vositalarning farmakokinetika va farmakodinamikasi. | Blastomalar haqida tushuncha. Blastomalarga qarshi vositalarning tasnifi va ta'sir turlari, nojuya ta'sirlari.Immun jarayoniga ta'sir qiladigan vositalar. Dorilarning ta'siri, xususiyatlari, qo'llanilishi, salbiy ta'sirini o'rganish.Antigistamin vositalar. Dorilarning ta'siri, xususiyatlari, qo'llanilishi, salbiy ta'sirini o'rganish. Yallig'lanishga qarshi vositalar. Nosteroid vositalar.Steroid vositalar.Dorilarning ta'siri, xususiyatlari, qo'llanilishi, salbiy ta'sirini o'rganish.<br>Blastomalarga qarshi preparatlarning terapevtik dozalari, qo'llanilishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. Preparatlarning terapevtik dozalari, qo'llanilishi. Immun jarayoniga ta'sir kiladigan vositalar: dekaris, timolin, pirogenal dorilarning qo'llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish.<br>Antigistamin vositalar: dimedrol, diprazin, diazolin, ketotifen, zodak, zirtek, analergin, tavegil, suprastin, fenkarol, intal dorilarning qo'llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish va kundalikka qayd etish. Yallig'lanishga qarshi vositalar. Nosteroid vositalar: asetilsalisilat kislota, indometasin, ibuprofen, butadion, diklofenak-natriy, ortofen, nemisil, ketonal, melbek-forte dorilarning qo'llanilishi, resept yozish, signaturasini tahlil qilish. Steroid vositalar: gidrokortizon, prednizolon, triamsinolon, deksametozon. Ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | **18** | **N-6<br>A-12** | **6** |
| **17** | Biologik aktiv vositalar. Fitoterapevtik vositalar. Dori moddalaridan o'tkir | Biologik aktiv moddalar. Dorilarning ta'siri, xususiyatlari, qo'llanilishi, salbiy ta'sirini o'rganish. Fitoterapevtik vositalar. Zaharlanishlarda asosiy davolash prinsiplari. Antagonistlarni qo'llash. Zaharli | **16** | **N-4<br>A-12** | **6** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | zaxarlanishlarda davolash usullari. | moddalarning organizmdan chiqib ketishini tezlashtirish. Preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi. Biologik aktiv moddalar: FIBS, gumizol, aktovigen, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish. Dori moddalaridan o‘tkir zaharlanishlarni davolash usullari. Preparatlarning terapevtik dozalari, qo‘llanilishi, ulardan zaharlanish belgilari, zaharlanishlarda yordam choralari, preparatlarga resept yozish va signaturasini tahlil qilish. | | | |
| | **Jami :** | | **240** | **N-80 A-160** | **120** |

**3. O‘quvchilarning bilim va kunikmalarini baholash.**

O‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.Baholash usullari yozma, og‘zaki , savol javob , test hamda maliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarini aniqlashga imkon beradi.Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maqsadga muvofiq bo‘lishi lozim.

**4.Asosiy va qo‘shimcha adabiyetlar xamda axborot manbalari**

**Prezident asarlari:**

1.Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
2.Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
3.Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod –buyuk kelajakning,t adbirkor xalq –faravon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. Toshkent – “O‘zbekiston” 2019.
4.Shavkat Mirziyoyev “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” . Toshkent – “O‘zbekiston” 2020

**Asosiy adabiyotlar:**

1. N.A.Musayeva va boshqalar “Farmakologiya asoslari”. Toshkent, “Ilm ziyo” nashriyoti,2012 yil.
2. M.A.Adilov va boshqalar “Farmakologiya reseptura asoslari bilan” Tashkent, izdatelstvo Nasionalnogo obщyestva filosofov O‘zbekistana, 2007 g. 3. M.N.Maxsumov va boshqalar“Farmakologiya asoslari”.Toshkent, “Ilm ziyo”nashriyoti, 2007 yil.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Davlat farmakopeyasi.
2

**Internet saytlari:**

http://www.ziyonet.uz,

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI**
**50910401-“Farmatsiya ishi” mutaxassisligi**

# DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN

## MODUL DASTURI

| | |
|---|---|
| **Kvalifikatsiya:** | **Farmasevt assistenti** |
| **O'quv rejadagi tartib raqami:** | **3.05** |
| **Ajratilgan auditoriya soat:** | **240** |

**Toshkent-2023 yil**

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan va TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.


**Tuzuvchilar :** N.A.Muxamedova — Respublika tibbiyot kolleji “Farmasiya”kafedrasi Dori turlari texnologiyasi o‘qituvchisi:

D.A.Abbosova: — Respublika tibbiyot kolleji Farmasiya”kafedrasi Dori turlari texnologiyasi o‘qituvchisi:

**Taqrizchilar :** Yo.C.Kariyeva — Toshkent Farmasevtika Instituti “Dori turlari texnologiyasi” kafedrasi mudiri professor

M.A.Toshmuxamedova — “Dori turlari texnologiyasi” kafedrasi assistenti

**DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI MODULIDAN**
**SILLABUS**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Modulning to‘liq nomi** | **Dori turlari texnologiyasi** | | |
| **Modul kodi :** | Kredit xajmi: 10 kredit<br>щundan: JN – 6,7 kredit; | Modul o‘tilish davri: 1,2.3.4,5,6 semestr | ECTS value: 5 |
| **Ta’lim yo‘nalishi** | 910400 -Farmatsiya | 1-2 bosqich | |
| **Modulning davomiyligi** | 120 hafta | | |
| **O‘quv soatlari hajmi:** | Jami soat : | 360 | |
| | Shuningdek : | 240 | |
| | Maruza | 80 | |
| | amaliy mashg‘ulot | 160 | |
| | Mustaqil ta’lim | 120 | |
| **O‘quv modulining statusi** | Klinik modullar | | |
| **O‘MPT nomi, manzili** | | | |
| **Kafedra nomi** | | | |
| **Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot** | Ma’ruzachilarning F.I.Sh.<br>Laboratoriya mashg‘ulot o‘tkazuvchilarning F.I.Sh. | E-mail:<br><br>E-mail: | |
| **Mashg‘ulot vaqti va joyi** | | | |
| **Prerekvizitlar** | Modulga umumiy va noorganik kimyo, biologiya, matematika, fizika fanlari nazariy qismi xisoblanadi. | | |
| **Posrekvizitlar** | Farmatsevtik texnologiya moduli keyinchalik biologik kimyo, farmatsevtik kimyo, toksikologik kimyo, farmakognoziya modullari uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi. | | |
| **Modulning maqsadi** | Talabalarda dorixona sharoitida ishlab chiqariladigan qattiq, suyuq, yumshoq va ineksion dori turlarini tayyorlash usullari, dori tayyorlashda ishlatiladigan yordamchi moddalar, ularning sifati va mutanosibligini, dorixonada dori turlarni tayyorlashda h.ozirgi zamon talablarini o‘rgatish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish. | | |
| **Modulning vazifalari** | Talabalarda farmatsevtik texnologiyaning nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, dori shakllarini tayyorlashga va sifatini baholashga uslubiy yondoshuvni shakllantirishdan iboratdir. Farmatsevtik texnologiyaning asosiy tushunchalari, uning maqsad va vazifalari, rivojlanish bosqichlari, dorilar texnologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirishlarning asosiy yo‘nalishlari muammolariga zamonaviy ilmiy yutuqlar asosida yondashuv kabi ko‘nikmalarni hosil qilish. | | |

| | |
|---|---|
| **Modul bo‘yicha talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar** | **Talaba tasavvurga ega bo‘lishi kerak:**<br>**-**farmatsevtik texnologiya atamalari, - zaxarli va kuchli ta’sir etuvchi moddalarning dozalarini tekshirish;<br>-dori turlarini tayyorlashning nazariy asoslarini va amaliy usullarini qo‘llash;<br>-adabiyotlardan foydalanish haqida.<br>**Talaba bilishi shart:**<br>-dori turlarini tayyorlashda dori turlarini texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilish,<br>-retseptni o‘qish, uni yozilishi va rasmiylashtirilishi to‘g‘riligini nazorat qilish,<br>- dori turlarini tayyorlash uchun kerak bo‘lgan dori va yordamchi moddalar miqdorini hisoblashni**.**<br>**Talaba bajara oladi:**<br>1. Retseptni o‘qishni bilishi;<br>2. Retseptni passport qimini hisoblashni;<br>3. Dori moddalarni fizik-kimyoviy xususiyatlarini ajrata olishni;<br>4. Retseptni tayyorlashni;<br>5. Tayyorlangan dori shaklini sifatini baholashni;<br>6. Dori shaklini qadoqlashni;<br>7. Qadoqlangan dori shaklini jihozlashni.<br>**Talaba quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:**<br>1. dori shakllarini tayyorlashda optimal texnologiyani tanlash;<br>2. modul bo‘yicha egallagan bilimlarni o‘zining ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatida qo‘llash. |
| **Ta’lim berish usullari:** | Ma’ruzalar va laboratoriya mashg‘ulotlar |
| **Ta’minoti :** | videodars va videoroliklar, multimediyali o‘qiv dasurlari, o‘qitish metodikasidagi yangi texnologiyalar, o‘quv-uslubiy majmua, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, mustaqil ish topshiriqlari, uyga beriladigan topshiriqlar, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar. |

**O‘qitish natijalari:**

**Modulni semestri yakunlaganda talaba biladi:**

-Poroshoklarni tayyorlash texnologiyasini nazariy asoslarini;
qiyin maydalanuvchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Bo‘yovchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-To‘zg‘uvchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Eksraktlar va efir moyi bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Zaharli moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Suvli eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Qiyin eruvchi moddalar bilan eritmalar tayyorlashni;
-Standart farmakopeya suyuqliklarini suyultirishni;
-YuMB eritmalarini tayyorlash texnologiyasini;
-Gidrofob moddalar bilan suspenziyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Gidrofil moddalar bialn suspenziyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Moyli va urug‘li emulsiyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Suvli ajratmalar olish texnologiyasini.
-Yumщoq dori turlarini tayyorlash texnologiyasi nazariy asoslarini;
-shamchalar tayyorlash texnologiyasini;
-Surtmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Pastalar tayyorlash texnologiyasini;

-Linimentlar tayyorlash texnologiyasini;
-Ineksion eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Infuzion eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Ko‘z tomchilarini tayyorlash tayyorlashni;
-Antibiotiklar bilan eritma, surtma, shamcha tayyorlash texnologiyasini;
-Dori moddalari bilan uchraydigan nomutanoibliklarni;

**Modulni semestri yakunlaganda talaba bajara oladi:**

-Qiyin maydalanuvchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Bo‘yovchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Tuzg‘uvchi moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Eksraktlar va efir moyi bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Zaxarli moddalar bilan poroshok tayyorlash texnologiyasini;
-Suvli eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Qiyin eruvchi moddalar bilan eritmalar tayyorlashni;
-Standart farmakopeya suyuqliklarini suyultirishni;
-YuMB eritmalarini tayyorlash texnologiyasini;
-Gidrofob moddalar bilan suspenziyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Gidrofil moddalar bialn suspenziyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Moyli va urug‘li emulsiyalar tayyorlash texnologiyasini;
-Damlamalar olish texnologiyasini;
-qaynatmalar tayyorlash texnologiyaini;
-Shilimshiqlar tayyorlash texnologiyaini.
-Jo‘valash usuli bilan shamcha tayyorlash texnologiyasini;
-Quyish usuli bilan shamcha tayyorlash texnologiyasini;
-Eritma va ertishma tipidagi surtma tayyorlash texnologiyasini;
-Suspenzion surtma tayyorlash texnologiyasini;
-Pasta tayyorlash texnologiyasini;
-Gomogen tipdagi liniment tayyorlash texnologiyasini;
-Geterogen tipdagi liniment tayyorlash texnologiyasini;
-Ineksion eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Infuzion eritmalar tayyorlash texnologiyasini;
-Ko‘z tomchilarini tayyorlash texnologiyasini;
-Antibiotiklar bilan eritma, surtma, shamcha tayyorlash texnologiyasini;
-Kimyoviy nomutanosibliklarni bartaraf etish yo‘llarini;
-Fizikaviy nomutanosibliklarni bartaraf etish yo’llarini;
-Farmakologik nomutanosibliklarni bartaraf etish yo’llarini.

**1.O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar**

| | |
|---|---|
| O‘quv dasturining nomi | Dori turlari texnologiyasi |
| Mavzular soni | 26 ta |
| Ajratilgan soat | -240 (nazariy soat – 80, amaliy soat -160 mustaqil ta’lim –120) Kredit soni – 10 |
| Dasturning maqsadi | Dori turlari texnologiyasi fanining nazariy asoslari va dori turlarini tayyorlash ko‘nikmalarini egallash va shakllantirish . |
| O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari ) | Hozirgi zamon fan yutuqlari asosida dori tayyorlashni o‘rgatiladi “Dori turlari texnologiyasi” fani o‘quvchilarga dori shakllarini tayyorlash usullarini va amaliyotga tadbiq etishni, jihozlashni, rasmiylashtirishni o‘rgatadi.” |
| Bilim | Dori turlari texnolgiyasi fani xaqida tushunchani,rivojlanish tarixini,maqsadi va vazifalarini; |

| | |
|---|---|
| | Dori turlar texnologiyasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini ; Qattiq ,suyuq,yumshoq va steril dori turlarini tayyorlash texnologiyasini,jixozlash ,saqlash va berishni o‘rgatadi. |
| Ko‘nikma | Resept asosida kukun,yig‘ma,eritma,suspenziya,emulsiya,tomchi dorilar ,damlama,qaynatma shilimshiq,surtma dori,sham dori,linimet,steril dori turlarini tayyorlashni,saqlash va berishni o‘rgatish |
| O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fan nomi | “Farmasevtik terminologiya va lotin tili “<br>“Farmakologiya asoslari”<br>“Fitoterapiya”<br>“Farmakognoziya va botanika asoslari” |
| O‘qitishni tashkiliy shakli | N-nazariy ta’lim;<br>A-amaliy ta’lim;<br>MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ; |
| Dasturga ko‘yilgan talab | Majburiy |
| O‘qitish tili | Guruxga tayinlangan dars tili asosida (o‘zbek va rus tili ) |
| Baxolash tartibi | Joriy baxolash tartibiga asoslanib (joriy nazorat ,oralik nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan ) |
| O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash | Yozma ,og‘zaki ,savol- javob ,munozara ,test ,amaliy topshiriq |

**2.O‘quv dasturi mazmuni**

| № | Mavzuniing nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O‘ qitishning tashkiliy shakli | Mustaqil ta’ lim |
|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | “Dori turlari texnologiyasi fanining maqsadi va rivojlanish tarixi. Dorixona, uning tuzilishi va vazifalari. Doza, doza haqida tushuncha, turlari.Biofarmatsiya-farmasevtika fanining yangi tarmog‘i | Dori turlari texnologiyasi“ fanining maqsadi va rivojlanish tarixi. Fanning buyuk asoschilari: Buqrot, Jolinius, Abu Ali ibn Sino. XVIII-XIX asrlarda Rossiyada farmatsiyaning rivojlanishi . Dorixona, uning tuzilishi, vazifalari, turlari. Dorixonadagi sanitariya rejimi. Davlat tasarrufidagi, xususiy va aksionerlik dorixonalari. Dorixona faoliyati haqidagi buyruqlar.2010-yil 18-iyundagi “Davolash-profilaktika muassasalarida dori vositalarini tayinlash hamda bemorlarning dori vositalarini qabul qilish,saqlash va qo‘llash tartibi, shuningdek dorixona muassasalari tomonidan aholiga dori vositalarini resept asosida berish to‘g‘risidagi Nizomni | **4** | **N-4** | **1** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tasdiklash haqida”gi 191-sonli buyrug‘i. Dori moddalarning dozalari haqida tushuncha. Dozaning turlari: bir martalik, bir sutkalik, o‘rtacha terapevtik, zaharli va o‘ldiruvchi doza haqida tushunchalar. Dori turlari texnologiyasi uchun biofarmatsiyaning ta’rifi va ahamiyati. Biofarmasevtik omillar. | | | |
| **2.** | Resept, uning tuzilishi. Dorixona idishlari va qadoqlovchi yordamchi vositalar. Dori turlari texnologiyasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar | Reseptning tuzilishi. Reseptning ahamiyati va turlari. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligining resept to‘g‘risidagi buyrug‘i. Resept yozish qoidasi. Dorixonada resept qabul qilish va ularni saqlash tartibi.Shisha va chinni idishlar, shtanglaslar. Qog‘oz va uning turlari, karton. Sintetik polimer idishlar va ulardan tayyorlangan idish turlari. Yog‘och, plastmassa, po‘kak, metall, rezina tiqinlar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Kapsula turlari: qog‘oz, pergament, mumlangan, parafin shimdirilgan, glyutoid, jelatina-kraxmal kapsulalar.Davlat farmakopeyasi va uning tuzilishi. Manuallar. Standart va boshqa me’yoriy xujjatlar. O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligini buyruqlari, yuqori tashkilotlarning qaror va ko‘rsatmalari va axborot xatlari. | **4** | **N-4** | **2** |
| **3.** | Dori shakllarini tayyorlashda og‘irlik va hajm o‘lchash asboblari | Dori turlarini tayyorlashda dozalarga bo‘lishning ahamiyati. Tarozi turlari. Tarozilarning tuzilishi va ulardan foydalanish qoidalari. Dozator qoshiqchaning tuzilishi, ishlatish maqsadi va qoidasi. Suyuqliklarni o‘lchash usullari. Hajm o‘lchash asboblari: o‘lchov kolbalari, silindrlar, menzurkalar, tomchi o‘lchagichlar, byuretkalar<br>Dorixona amaliyotida qo‘llaniladigan tarozilarning tuzilishi bilan tanishish. Tarozining xususiyatlarini tekshirish. Sochiluvchan, suyuq va quyuq moddalarni tortish.<br>Dozator qoshig‘ini qoidaga binoan ishlatish. Hajm o‘lchov asboblaridan | **10** | **N-2<br>A-8** | **6** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | foydalanish. | | | |
| **4.** | Kukunlar | Kukun dori shakllarining qo‘llanilishi, tarkibi va dozasiga qarab sinflarga bo‘linishi. Kukun dori shakllariga resept yozish qoidalari va dozasini tekshirish. Dozaga bo‘lingan va bo‘linmagan, oddiy va murakkab kukunlar. Kukun dori shakllarining umumiy tayyorlash texnologiyasi. Kukun dori shakllarini tayyorlashda to‘g‘ri hovoncha tanlash. Hovoncha turlari haqida umumiy ma’lumot. Kukun dori shakllarini bo‘yovchi, uchuvchan, qiyin maydalanadigan, zaharli va kuchli ta’sir etuvchi moddalar va ekstraktlar bilan tayyorlash.<br>Trituratlar tayyorlash. Indifferent moddalar. Yarim tayyor mahsulotlardan, efir moyining qandli aralashmasi bilan kukunlar tayyorlash. Kukun dori shakllarini qadoqlash, joylash, jihozlash, rasmiylashtirib berish. | **24** | **N-4<br>A-20** | **12** |
| **5.** | Yig‘malar | Yig‘malarning qo‘llanilishiga ko‘ra sinflarga bo‘linishi. Dorixonada yig‘malarni tayyorlash texnologiyasi. Presslangan yig‘malar. Yig‘malarga qattiq dori vositalar qo‘shish qoidalari. Yig‘malarga qo‘shimcha dori moddalar qo‘shish. Yig‘malarni qadoqlash, jihozlash va rasmiylashtirib berish. | **6** | **N-2<br>A-4** | **2** |
| **6.** | Eritmalar | Suyuq dori turlarini qo‘llanilishi, dispers holatiga ko‘ra sinflarga bo‘linishi. Tozalangan suv, uning olinishi, saqlanishi. Chin eritmalar. Eritmalarga reseptlar yozish qoidalari. Eritmalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Eritmalarni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Dozasini tekshirish. Tarkibida 5% va undan ortiq quruq modda saqlagan eritmalarni tayyorlash. Byuretka sistema uchun konsentrlangan eritmalarni tayyorlash. Hajm oshish koeffisiyenti (HOK). Standart eritmalar: xlorid kislota, vodorod peroksidi, formalin, Burov suyuqligi eritmalarini tayyorlash. Xushbo‘y | **26** | **N-6<br>A-20** | **6** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | suvlar. Xushbo‘y suvlarni umumiy tayyorlash texnologiyasi.<br>Suvsiz eritmalar. Gliserinli va moyli eritmalar. Spirtni suyultirish. Spirtli eritmalarni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Yuqori molekulali birikmalarning eritmalari. Pepsin, jelatina va kraxmal eritmalarini tayyorlash texnologiyasi. Kolloid eritmalar ularning xossalari, turg‘unligi.<br>Dorixona amaliyotida kollargol, protargol, ixtiol eritmalarini tayyorlash texnologiyasi. Eritmalarni jihozlash va rasmiylashtirib berish**.** | | | |
| **7.** | Suspenziyalar | Suspenziyalarga ta’rif, suspenziyalarning hosil bo‘lish omillari. Gidrofob va gidrofil moddalardan suspenziyalar tayyorlash. Suspenziyalar turg‘unligini oshiruvchi stabilizatorlar. Suspenziyalarni dorixonalarda dispergirlash va kondensasion usullarda tayyorlash texnologiyasi. Chayqatiladigan miksturalar. Suspenziyalarni sifatini tekshirish. Suspenziyalarni qadoqlash, jihozlash va berish. | **12** | **N-4<br>A-8** | **5** |
| **8.** | Emulsiyalar | Emulsiyalar qadimgi dori turi. Emulsiyalarning turlari: suvdagi-moy (S/M,) va moydagi-suv(M/S) tipidagi emulsiyalar. Emulgatorlar va ularning xususiyatlari. Moylardan va mag‘izlardan emulsiya tayyorlash texnologiyasi. Emulsiyalar sifatini tekshirish, jihozlash va berish. | **12** | **N-4<br>A-8** | **6** |
| **9.** | Suvli ajratmalar | Suvli ajratmalar - damlama, qaynatma va shilimshiqlar ta’rifi. Suvli ajratmalarni tayyorlashda Davlat farmakopeyasi talablari. Saponin saqlovchi oshlovchi modda va efir moylari saqlovchi dorivor o‘simliklardan damlama va qaynatmalar tayyorlash.<br>Ekstrakt konsentratlardan suvli ajratmalar tayyorlash texnologiyasi. Shilimshiqlarni o‘ziga xos tayyorlash usullari. Suvni shimish yoki suvni o‘rnini bosish koeffisiyentlarini | **16** | **N-4<br>A-12** | **9** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | hisobga olib, suvli ajratmalar tayyorlash. | | | |
| **10.** | Linimentlar | Linimentlarga ta’rif, sinflarga bo‘linishi. Linimentlarga resept yozish. Linimentlar uchun asoslar. Gomogen va geterogen linimentlarni sovunli va moyli linimentlarni tayyorlash, sifatini tekshirish. Linimentlarni qadoqlash va yorliqlash. Saqlash qoidalari va muddatlari. | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **11.** | Surtma dorilar | Surtma dori turining ta’rifi va tavsifnomasi. Qo‘llanilishiga ko‘ra sinflarga bo‘linishi. Asoslar va ularning sinflarga bo‘linishi: liofil, gidrofil va emulsiya tipidagi asoslar. Dori moddalarni surtmalarga kiritish qoidalari. Resept yozish usullari. Surtmalarning umumiy va xususiy tayyorlash texnologiyasi. Gomogen va geterogen surtmalar. Ularni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash. Kosmetologik vositalar. | **20** | **N-8 A-12** | **10** |
| **12.** | Pastalar | Pastalar ta’rifi. Qo‘llanilishiga ko‘ra pastalarning turlari.Sinflarga bo‘linishi. Pastalarga resept yozish qoidasi. Pastalarning tayyorlash texnologiyasi. Pastalarni qadoqlash, jihozlash, rasmiylashtirish va saqlash. | **6** | **N-2 A-4** | **4** |
| **13.** | Sham dorilar | Sham dorilarning biofarmasevtik nuqtai nazardan ta’rifi. Shamcha, sharcha, tayoqchalarga resept yozib, hisoblash.Asos miqdorini xisoblash. Shamcha, sharcha, tayoqchalarni turli usullar bilan tayyorlash: qo‘l bilan ezish, quyish usullari. Tayoqchalarga qo‘shiladigan asos miqdorini formula yordamida hisoblashni.Ularning sifatini tekshirish, qadoqlash, jihozlash va berish. | **12** | **N-4 A-8** | **5** |
| **14.** | Steril dori shakllari . Aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllari. | Steril sharoitida tayyorlanadigan dori shakllari: Aseptikaning mohiyati. Aseptik blokning tuzilishi.Steril dori turlariga qo‘yilgan talablar. Steril va aseptik eritmalarni tayyorlashda ishlatiladigan dori vositalarga qo‘yilgan talablar.Aseptik sharoitda dori shakllarini tayyorlash texnologiyasi .Sterilizasiya va sterilizasiya turlari. | **6** | **N-2 A-4** | **4** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Jixozlash saqlash va berish. Sterilizasiya va sterilizasiya turlari . | | | |
| **15.** | Inyeksion dori turlari ( fiziologik, infuzion eritmalar) | Sterillangan va aseptik sharoitda tayyorlangan dorilar haqida tushuncha. Dorilarni inyeksiya usuli bilan organizmga kiritish yo‘llari. Inyeksion eritmalarni turg‘unlashtirish uchun ishlatiladigan stabilizatorlar va ularni hisoblash.Eritmaning hajmiga qarab avtoklavda sterillash vaqti va qoidalari.<br>Erituvchilar.Inyeksion suvga qo‘yilgan talablar. Inyeksion dorilarga qo‘yilgan talablar. Izotonik eritmalar to‘g‘risida tushuncha, izotonik konsentrasiyalarni Vant -Goff qonuni bo‘yicha hisoblash. Natriy xlorid ekvivalenti bo‘yicha hisoblash. Aseptik sharoitida tayyorlanadigan inyeksion dori turlari. Fiziologik eritmalar. Plazma o‘rnini bosuvchi eritmalar,natriy xloridning izotonik eritmasi. Inyeksion eritmalarni saqlanish muddati. | **10** | **N-2<br>A-8** | **6** |
| **16.** | Ko‘z dori shakllari | Ko‘zga ishlatiladigan dorilar tayyorlashning o‘ziga xos usullari. Ko‘z tomchilari, ularga qo‘yilgan talablar. Natriy xlorid ekvivalenti bo‘yicha hisoblash. Ko‘z tomchilarini tayyorlash texnologiyasi. Ko‘zni yuvish uchun ishlatiladigan eritmalar. Ko‘z surtmalari. Ularga qo‘yiladigan talablar. Ko‘z surtmalari uchun ishlatiladigan asoslar. Ularni aseptik sharoitda tayyorlash. Surtmalarni qadoqlash, jihozlash, yorliqlash. | **12** | **N-4<br>A-8** | **6** |
| **17.** | Antibiotiklar bilan tayyorlanadigan dori shakllari | Tarkibida antibiotik saqlagan dori turlari. Aseptik sharoitda<br>ularni o‘ziga xos usullar bilan tayyorlash. Antibiotik bilan kukunlar, eritmalar,surtmalar va tomchi dorilar tayyorlash, qadoqlash, jihozlash va berish. | **6** | **N-2<br>A-4** | **2** |
| **18.** | Bolalar uchun tayyorlanaligan dori shakllari | Bolalar uchun tayyorlanadigan dori turlariga qo‘yilgan talablar.Bolalar uchun tayyorlanadigan dori turlari kukunlar, eritmalar, shamdorilar tayyorlash texnologiyasi. Qadoqlash, jihozlash va berish. | **6** | **N-2<br>A-4** | **2** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **19.** | Dori shakllarini tayyorlashda uchraydi-gan nomutanosibiklar va qiyinchilik tug‘diradigan reseptlar . | Bir-biri bilan kelisha olmaydigan dori moddalari bo‘lgan reseptlarni muhokama qilish va ushbu reseptning tarkibidagi dori moddalarning fizik - kimyoviy xususiyatlarini tahlil qilish. Qiyinchilik tug‘diradigan dori moddalari bo‘lgan reseptlardagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish. | **6** | **N-2 A-4** | **2** |
| **20.** | Veterinariyada ishlatiladigan dori shakllari | Veterinariyada qo‘llaniladigan dorilar, ularning turlari. Veterinariyada ishlatiladigan dorilar bilan tibbiyotda ishlatiladigan dorilarning farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlari. | **2** | **N-2** | **1** |
| **21.** | Ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanadigan qattiq dori shakllari: tabletka, draje, kukunlar . | Kukunlar, ularga tavsifnoma. Kukunlarning qo‘llanilishi, tarkibi, dozasiga qarab sinflarga bo‘linishi. Kukunlarni tayyorlash texnologiyasi maydalash, elash, aralashtirish, qadoqlash, jihoz-lash. Granulalar, granulalarning ahamiyati, afzalliklari, korxonalarda tayyorlanadigan granulalar. Tabletkalar, drajelar ta’rifi, tayyorlash texnologiyasi. | **6** | **N-2 A-4** | **2** |
| **22.** | Inyeksion dori shakllari: ampulalar | Sterillangan va aseptik dorilar xaqida tushuncha. Sterillash usullari. Erituvchilar. Inyeksion suvga qo‘yilgan talablar. Inyeksion dorilarga qo‘yilgan talablar. Izotonik eritmalar to‘g‘risida tushuncha. Fiziologik eritmalar. Plazma o‘rnini bosuvchi eritmalar, natriy xloridning izotonik eritmasi. Inyeksion eritmalarni saqlanish muddati. | **6** | **N-2 A-4** | **4** |
| **23.** | Galen preparatlari, farmasevtika suvlari, eritmalari | Galen preparatlari haqida umumiy tushuncha. Galen preparatlarining turlari –farmasevtika suvlari, sharbatlar, medisina spirtlari, nastoyka va ekstraktlar, medisina moylari, olinishi va tayyorlanishi, ajratmalarni begona moddalardan tozalash, bahorgi Adonis, marvaridgul o‘simliklaridan olinadigan preparatlar. | **6** | **N-2 A-4** | **4** |
| **24.** | Organopreparatlar va biogen stimulyatorlar | Organopreparatlar ta’rifi, organopreparatlarni ishlab chiqarishninig ahamiyati, hayvonlardan olinadigan a’zolarini konservasiya qilish usuli, organopreparatlarning turlari, quruq | **6** | **N-2 A-4** | **4** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | organopreparatlarning umumiy olinish texnologiyasi, ichishga mo‘ljallangan suyuq preparatlarning olinishi. Oshqozon osti bezi preparatlari Qalqonsimon bez preparatlari . | | | |
| **25.** | Vitaminlar va ferment preparatlar. | Vitamin va fermentlar xaqida tushuncha.Vitamin va ferment preparatlarini tayyorlash texnologiyasi. | **2** | **N-2** | **2** |
| **26.** | Aerozollar | Aerozol dori shakli haqida tushuncha. Aerozol dorilarning turlari farmasevtik va tibbiyot aerozollari. Aerozol dori turining afzalliklari, tibbiyotda ishlatilishi, aerozol ballonlarning tuzilishi, ballonlarning mustahkamligini aniqlash, ularning asosiy qismlari ulardan foydalanish va saqlash. | **2** | **N-2** | **2** |
| | **Jami :** | | **240** | **N-80 A-160** | **120** |

**3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni baxolash**

o‘quv dasturi asosida o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baxolash usullari yozma, ogzaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarni aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maksadga muvofiq bo‘lish lozim.

**4.Asosiy va qo‘shimcha adabiyetlar xamda axborot manbalari**

**Prezident asarlari:**

1.Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.

2.Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.

3.Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod –buyuk kelajakning,t adbirkor xalq –faravon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. Toshkent – “O‘zbekiston” 2019.

4.Shavkat Mirziyoyev “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” . Toshkent – “O‘zbekiston” 2020

**Asosiy adabiyotlar**

1**.** K.Maxmudjonova, Sh.Shodmonova, Sh.Tolipova, Sh.Yuldasheva “Dori turlari texnologiyasi” Toshkent, 2011

2. M.M. Mirolimov "Farmasevgik texnologiya asoslari" Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2001-yil.

3. A.Muxamadiyeva “Doriturlari texnologiyasi” Toshkent, Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002- yil.

4. Shavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.

5. Spravochnik farmasevta. Moskva, “Medisina”, 2004g

1. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

2. www.Googlye.ru 3. www.med.uz. 4. www.Ziyo net.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI**

**50910401-“Farmatsiya ishi” mutaxassisligi**

# FARMASEVTIK BIOTEXNOLOGIYA ASOSLARI

**FANIDAN**

**MODUL DASTURI**

| | |
|---|---|
| **Kvalifikatsiya:** | **Farmasevt assistenti** |
| **O'quv rejadagi tartib raqami:** | **3.06** |
| **Ajratilgan auditoriya soat:** | **192** |

**Toshkent-2023 yil**

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan va TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.


| | | |
|---|---|---|
| **Tuzuvchilar** : | U.B.Anarmetova | 2-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi JST “Farmasiya” kafedrasi o’qituvchisi |
| | S.A.Abduraxmonova | 2-son Respublika Abu Ali ibn Sino nomidagi JST “Farmasiya” kafedrasi mudiri |
| **Taqrizchilar :** | R.M. Artikova | Toshkent Farmasevtika Instituti “Biotexnologiya” kafedrasi dotsenti |
| | Sh.N.Madraximov | Toshkent Farmasevtika Instituti “Biotexnologiya” kafedrasi mudiri |

**FARMASEVTIK BIOTEXNOLOGIYA ASOSLARI MODULIDAN**
**SILLABUS**

| | | |
|---|---|---|
| **Modulning to‘liq nomi** | **Farmasevtik biotexnologiya** | |
| **Modul kodi:** | Kredit xajmi: 8 kredit<br>shundan: JN – 3 kredit | Modulni o‘tilish davri: |
| **Ta’lim yo‘nalishi** | 910400-Farmatsiya | |
| **Modulning davomiyligi** | ….. hafta | |
| **O‘quv soatlari hajmi:** | Jami soat : | 288 |
| | Shuningdek : | 192 |
| | Nazariy | 48 |
| | Amaliy mashg‘ulot | 144 |
| | Mustaqil | 96 |
| **O‘quv modulining statusi** | Klinik modular: | |
| **O‘MPT nomi, manzili** | | |
| | | |
| **Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot** | Ma’ruzachilarning F.I.Sh.<br>Laboratoriya mashg‘ulot o’tkazuvchilarning F.I.Sh. | e-mail: |
| **Mashg‘ulot vaqti va joyi** | | |
| **Modulning mazmuni** | Farmasevtik biotexnologiya moduli haqida tushunchani, rivojlanish tarixini, maqsadi va vazifalarini;<br>Farmasevtik biotexnologiya modulining boshqa modullar bilan bog‘liqligini;<br>dori mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, tarqatish va sifatini baholash;<br>bioindustrial ishlab chiqarish qoidalarini bilishni;<br>farmasevtika korxonalari uskunalarida ishlay olishni o‘rgatish | |
| **Prerekvizitlar** | Hayot faoliyati xavfsizligi, fiziologiya odam anatomiyasi asoslari bilan, tibbiy biologiya, umumiy genetika, farmakologiya, farmasevtik texnologiya | |
| **Postrekvizitlar** | Farmasevtika ishini tashkil qilish, sanoat farmatsiyasi, tibbiy va farmasevtik tovarshunoslik, farmasevtik texnologiya. | |
| **Modulning maqsadi** | Farmasevtik tashkilotlarida farmasevtik biotexnologiyaning zamonaviy talablar asosida tashkil etish<br>Tibbiyot va farmasevtika tovarlarni innovatsion metodlar orqali ishlab chiqish usullari haqida ma’lumot beradi.<br>Farmasevtik biotexnologiya moduli bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish asosida, respublika aholisi va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo‘lgan talabini qondirishda samarali ishlab chiqarish tizimini shakllantiradi va uni rivojlantirishga | |

| | |
|---|---|
| | zamin yaratadi. |
| **Modulning vazifalari** | Farmasevtik biotexnologiya modulining vazifalari:<br>ushbu maqsadga erishish uchun bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish asosida, respublika aholisi va davolash-profilaktika muassasalarining dori vositalari va tibbiyot buyumlariga bo‘lgan talabini qondirish jarayonini o‘zlashtirish, samarali ta’minot tizimini shakllantirish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, va uni rivojlantirish uchun zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. |
| **Modul bo‘yicha talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar** | Talaba:<br>-Farmasevtik biotexnologiya moduliga oid bilim asoslari,<br>-turli mulkchilik shaklidagi dorixonalarda, tibbiy texnika do‘konlari va omborlarida farmasevtika va tibbiyot tovarlarni saqlash jarayonini tashkil qilish va to‘gri yo‘lga qo‘yish;<br>- aholini dorixona, tibbiy texnika do‘konlari va omborxonalar orqali o‘z vaqtida sifatli farmasevtika va tibbiyot va farmasevtika tovarlar bilan ta’minlash yo‘llarini bilish;<br>- farmasevtika va tibbiy tovarshunoslik tamoyillari va tahlil usullarini o‘tkazish;<br>- farmasevtika va tibbiyot va farmasevtika tovarlarni qabul qilishda va saqlashda sifatini nazorat qilish uchun me’yoriy hujjatlar bilan ishlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>- dorixona, tibbiy texnika do‘kon va omborlarida hisob-kitob ishlarini amalga oshirish maqsadida farmatsevtika va tibbiyot tovarlar assortimentini boshqarish;<br>- farmasevtika va tibbiyot farmasevtika tovarlarni qabul qilish va saqlash jarayonida sifatini baholash usullari<br>- farmasevtika va tibbiyot va farmasevtika tovarlarni ajrata olish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; |
| **Ta’lim berish usullari** | Nazariy va amaliy mashg‘ulot |
| **Ta’minot** | Taqdimotlar, videoma’ruzalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron kutubxonasiga joylashtirilgan resurslar (darslik, o‘quv-qo‘llanma, ma’ruza matni, o‘quv-uslubiy majmua, qo‘shimcha adabiyotlar), vaziyatli masalalar, teslar to‘plami, keyslar va boshqalar. |

**O‘qitish natijalari**:

**Modulni yakunlaganda talaba biladi**:

–Biotexnologiya moduli haqida tushunchani, rivojlanish tarixini, maqsadi va vazifalarini o‘rganib oladilar;

-Farmasevtik biotexnologiya modulining boshqa modullar bilan bog‘liqligini bilib oladilar;
dori mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, tarqatish va sifatini baholashni o‘rganib oladilar;
bioindustrial ishlab chiqarish qoidalarini bilishni tushunib oladilar;

-farmasevtika korxonalari uskunalarida ishlay olishni o‘rganishadi.

**Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:**

Biotexnologik ishlab chiqarishdagi laboratoriya tuzilmasi va jihozlari bilan tanishishadi;
Biotexnologiyaning asosiy mahsulotlari manbai bo‘lgan mikroorganizm vakillarini mikroskopda o‘rganadilar;
Oziqa muhitlarini tayyorlash, ekish materiallarini tayyorlash. Kultivatsiya qilish. Ajratish va tozalash. Quruq mahsulotlar. Suyuq mahsulotlarni saqlashni, qo‘llashni o‘rganadilar;
Aminokislota aralashmasini olish va aminokislota sinteziga ekish sharoitlarining ta’sirini o‘rganadilar.

Mikroorganizmlardan proteolitik fermentlar olishni tushunib oladilar;
Sut kislotali bijg‘ishni o‘rganib oladilar;
Gomofermentativ va geterofermentativ sut-kislotali bijg‘ishni o‘rganib oladilar;
Propion kislotali bijg‘ish (vitamin $B_{12}$), aseto-etil va aseton-butilli bijg‘ishni o‘rganib oladilar;
Spirtli bijg‘ishni o‘rganib oladilar;

**1. O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar**

| | |
|---|---|
| O‘quv dasturining nomi | Farmasevtik biotexnologiya asoslari |
| Ajratilgan soat | 192 ( nazariy soati: 48, amaliy: 144, mustaqil talim: 96)<br>Kredit : 8 |
| Mavzular soni | 16 ta |
| Dasturning maqsadi | Farmasevtik biotexnologiya asoslari<br>fanining dori turlarini tayyorlash ko‘nikmalarini egallash va shakllantirish . |
| O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari) | Farmasevtik biotexnologiya asoslarining jarayonlari va qurilmalarining asosiy atamalari va tushunchalarini o‘zlashtirish;<br>Farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishda tartibga soluvchi normativ xujjatlar bilan tanishish. |
| Bilim | Farmasevtik biotexnologiya asoslari<br>fani haqida tushunchani, rivojlanish tarixini, maqsadi va vazifalarini;<br>Farmasevtik biotexnologiya fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligini;<br>dori mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, tarqatish va sifatini baholash;<br>bioindustrial ishlab chiqarish qoidalarini bilishni;<br>farmasevtika korxonalari uskunalarida ishlay olishni o‘rgatish |
| Ko‘nikma | O‘quvchilarda muloqat ko‘nikmasini shakllantirishni (o‘z nuqtai nazarini himoya qilishni, munozarani olib borishni) o‘rgatadi |
| O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fan nomi | “Umumiy mikrobiologiya”<br>“Farmakologiya”<br>“Sanoat farmatsiyasi”<br>“Farmakognoziya va botanika asoslari”<br>“Halq tabobati”<br>“Analitik kimyo” |
| O‘qitishni tashkiliy shakli | N-nazariy ta’lim;<br>A-amaliy ta’lim;<br>MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ; |
| Dasturga ko‘yilgan talab | Majburiy |
| O‘qitish tili | Guruxga tayinlangan dars tili asosida (o‘zbek va rus tili ) |
| Baholash tartibi | Joriy baholash tartibiga asoslanib (joriy nazorat, oralik nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan ) |
| O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash | Yozma, og‘zaki, savol- javob, munozara, test, amaliy topshiriq |

**2.O‘quv dasturi mazmuni**

| № | Mavzuniing nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | Jami | O‘ qitishning tashkiliy shakli | Mustaqil ta’ lim |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Farmasevtik biotexnologiya asoslarining maqsadi va rivojlanish tarixi. Yangi biotexnologik preparatlar va maxsulotlar bozori. | Farmasevtik biotexnologiya asoslarining maqsadi va rivojlanish tarixi. Uning buyuk asoschilari. Farmasevtik biotexnologiya asoslarining rivojlanishi va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi. Farmasevtik biotexnologiya asoslari fanining biologiyada, tibbiyotda, farmasevtikada, oziq-ovqat sanoatida, qishloq xo‘jalik sanoatidagi ahamiyati. | 8 | N-4<br>A-4 | 6 |
| 2 | Biofarmatsevtika: hozirgi holati va kelajakdagi samarasi.<br>Xalq xo‘jaligidagi biotexnologik jarayonlar | Biotexnologik ishlab chiqarishdagi laboratoriya tuzilmasi va jihozlari bilan tanishish. Biotexnologik jarayonlarning umumiy xarakteristikasi. Bioreaktorlar. Biotexnologiyaning turli sohalardagi yo‘nalishlari. Biotexnologik jarayonlarni avtomatlashtirish | 12 | N-4<br>A-8 | 6 |
| 3. | Biotexnologik sanoat mahsulotlarining tasnifi (klassifikasiyasi) Bioobyektlarni dori, profilaktika va diagnostika vositalari ishlab chiqarish sifatida qo‘llash | Biotexnologik ishlab chiqarishni asosi bo‘lgan mikroorganizmlarning hayot mahsullari. Biotexnologik ishlab chiqarishning umumiy sxemasi. Biotehnologiya jarayonlari va ularning umumiy tavsifi. Biologik faol moddalarni sintez qilish. | 12 | N-4<br>A-8 | 6 |
| 4. | Biotexnologiyaning ob’ektlari-viruslar, bakteriyalar, zamburug‘lar,suv o’tlari-mikromitset va makromitsetlar. | Biotexnologiya ob`ektlarini takomillashtirish usullari. Biotexnologiyaning asosiy mahsulotlari manbai bo‘lgan mikroorganizm vakillarini mikroskopda o‘rganish .O‘simlik, hayvon, odam hujayra, to‘qimalari, fermentlar, prostoglandinlar, nuklein kislotalar, | 20 | N-4<br>A-16 | 6 |
| 5. | Dori vositalarini ishlab chiqarish va olishning asosiy | Biotexnologik ishlab chiqarishning asosiy texnologik sxemasi. | 10 | N-2<br>A-8 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | biotexnologik jarayonlari Farmasevtik biotexnologiyaning ekologik aspektlari. | Biotexnologik sanoatda qo‘llanadigan asosiy jihozlar. Fermentatorlar. Uskunani sterilizasiya qilish usullari. Produsentlarni yetishtirish (ekish) uchun ozuqa muhitlarining turlari va xususiyatlari. Fermentator bilan tanishish. Oziqa muhitlarini tayyorlash, ekish materiallarini tayyorlash. Kultivasiya qilish. Ajratish va tozalash. Quruq mahsulotlar. Suyuq mahsulotlar. Saqlash. Qo‘llash. | | | |
| 6. | GLP, GCP, GMP tushunchalarinig ta’riflari va ularning farmasevtika ishlab chiqarish sohasiga kirish sabablari. | Ekologik nuqtai nazaridan biotexnologiya muammolari. Biotexnologik mahsulotlar uchun GMP va GLP sistemalari bilan tanishadi. Biotexnologik ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda korxonani qurilmalar bilan jihozlash | 6 | N-2 A-4 | 4 |
| 7. | Oqsillarni olishning asosiy tamoyillari. Oqsil olishda mikroorganizlardan foydalanish | Oqsil olishda achitqilardan foydalanish. Oqsil olishda bakteriyalardan foydalanish. Oqsil olishda mikroskopik zamburug‘lardan foydalanish. Oqsil olishda suv o‘tlaridan foydalanish. Oqsillarni tozalash usullari bilan tanishish | 10 | N-2 A-8 | 6 |
| 8. | Aminokislotalar, vitaminlar va lipidlar biotexnologiyasi va ularni dori vositasi sifatida qo‘llash | Aminokislotalarning odam organizmidagi biologik ahamiyati va ularni dori vositasi sifatida qo‘llash. Amino kislotalarning mikrobiologik sintezi. Vitaminlarning odamlar uchun ahamiyati. Vitamin preparatlarini olishda biotexnologiyaning rivojlantirish istiqbollari. Suvda eruvchi hamda yog‘da eruvchi vitaminlar. Yog‘da eruvchi vitaminlarning zaxiralari. Tibbiyotda ishlatiladigan lipidlar. Aminokislota aralashmasini olish. Aminokislota sinteziga ekish sharoitlarining ta’sirini o‘rganish. | 18 | N-6 A-12 | 6 |
| 9. | Farmatsevtikada ishlatiladigan terapevtik oqsillar va fermentlar.Fermentlarni olishning biotexnologiyasi. | Fermentlar haqida umumiy tushuncha. Fermentlar klassifikasiyasi va nomenklaturasi, fermentlarning funksiyalari. Biotexnologiya sanoatida individual | 16 | N-4 A-12 | 10 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Fermentlarni dori vositasi sifatida ishlab chiqarish hamda qo‘llash. | fermentlar va multiferment komplekslar.<br>Fermentlarni qo‘llash sohalari va zahirasi. Denaturasiya odatda funksionallikni yo`qolishiga, oqsil tarkibida oqsil funksiyasiga bog`lik likni aniq ko`rsatish.<br>Fermentlar va ferment sistemalari xalq xo‘jaligining turli sohalarida, masalan, farmatsevtika, to‘qimachilik, oziq-ovqat, tibbiyot, kimyoviy analiz, organik sintez, qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilishi. Fermentlar bilan ishlashning o‘ziga xos qiyinchiliklari.<br>Bug‘doy donidan lipaza fermentini ajratish. Amilaza fermentining kraxmal gidrolizidagi faolligini aniqlash. | | | |
| 10. | Fermentlar muxandisligi. Fermentlar sinflari va ularning fizik-kimyoviy hususiyatlari. Fermentlarni immobilizatsiyalash. Immobilizatsiya turlari. | Organik kislotalarning farmasevtikada va oziq-ovqat sanoatidagi ahamiyati. Organik kislotalarning ba’zi vakillarining xarakteristikasi.<br>Nuklein kislotalarni ajratish, gen muxandislgida ishlatiladigan nukleaza fermentlarining vazifalari Achitqi hujayrasidan ribonukleinni ajratish va gidroliz qilish . Mikroorganizmlardan proteolitik fermentlar olish. | 16 | N-4<br>A-12 | 6 |
| 11. | Normoflora preparatlari va ularni sanoat miqyosida ishlab chiqarish. Mikrobiologik sintez asosida olinadigan farmatsevtik preparatlar | Mikrobiologik sintez asosida olinadigan farmatsevtik preparatlar.<br>Probiotiklar (eubiotiklar)ni o’rganish ,aniqlash,yaratish jarayonlari , Probiotiklar tarkibidagi tirik hujayralarini mikroskopda ko’rib o’rganish. Bunday preparatlarga quyidagilar kiradi: bifidum bakterin, bifikol, laktobakterin, baktisubtil, lineks, enterol va boshqalar. | 10 | N-2<br>A-8 | 6 |
| 12. | O‘simliklar gen muxandisligi. Ti-plazmida genetik haritasi. Transgen o'simliklar yaratish tehnologiyasi. Kallus to'qimasi. | O'simliklar asosida olinadigan biopreparatlar. Madaniy o‘simliklar xosildorligini oshirish. O‘simliklarni kultivirlashning yangi usullari. | 10 | N-2<br>A-8 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Agrobacterium turiga mansub bakteriyalar ta’sirida o‘simlikni o’rganish. Mikrooganizmlarni o‘stirish usullari ,mikroorganizmlarni ekish usullari .ozuqa muxitlarini sterillash | | | |
| 13. | Hayvon organizmiga yangi genlar kiritish. Irsiy kasalliklar. | Biotexnologiya va yuqumli, onkologik va nasliy kasalliklar. Tibbiy genetikada inson irsiy kasalliklarining genetik asoslarini o‘rganish. Kasalliklarni aniqlashda tug‘ilgan chaqaloqlar va homila uchun diagnostik testlar ishlab chiqish. Test natijalariga asoslangan xolda genetik konsultatsiyalar berish jarayonlari. Genetik defektlarni medikamentoz terapiya, qon quyish va parhez yordamida davolash . | 18 | N-2 A-16 | 6 |
| 14. | Mikroorganizmlar dan olinadigan antibiotiklar va ularni biotexnologik usullar bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish. | Antibiótiklarni mikroorganizmlar tomonidan sintezlanish jarayoninio’rganish. Antibiotiklar hosilalari va analoglarini aniqlash. Antibiotiklar guruhini kimyoviy sintez yo‘li bilan yoki tabiiy manbalardan sintezlab olish usullari. (hayvon to‘qimalari va o‘simliklar). Antibiotiklar organizmda kasallik qo‘zg‘atuvchilariga nisbatan tanlovchan ta’sir etishini o’rganish, (bakteriyalar, zamburug‘lar, sodda mikroorganizlar, viruslarni) yoki yomon ta’sirdagi shishlarni (rak hujayralarini) o‘sishini bostirib turishini o’rganish. | 10 | N-2 A-8 | 6 |
| 15. | Biotexnologiya yordamida ekologik vaziyatni saqlash va atrof muhitni muhofaza qilish. | Istalgan biotexnologik ishlab chiqarishning umumiy prinsipial sxemasida ikkita element bo‘lishi zarur; biob’ekt (yoki ularning assotsiatsiyasi) va ozuqa muhiti (kultural suyuqlik, eritma va x.k.). Ajratilishi zarur bo‘lgan mahsulot yo hujayra biomassasi yo ularning metabolitlari bo‘lishi mumkin. Xar qanday ishlab chiqarish kabi biotexnologik ishlab chiqarishda ham chiqindilar yuqoridagi | 10 | N-2 A-8 | 6 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | komponentlar ko‘rinishida ajralib chiqadi. Ekobiotexnologiya. Atrof-muxitni tozalash usullari. | | | |
| 16. | Sanoat chiqindilarini biotexnologik usullar yordamida qayta ishlash. | Biotexnologiya usullari yordamida atrof muxitni qo‘riqlash va ekologik muammolarini xal qilish. Ishlab chiqarishdagi oqava suvlarini tozalash. | 6 | N-2<br>A-4 | 4 |
| | **Jami :** | | **192** | **N-48<br>A-144** | **96** |

**3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni baholash**

o‘quv dasturi asosida o‘kuvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar ichki nazorat bo‘yicha amaldagi tartib asosida baholanadi.

Baholash usullari yozma, og‘zaki, savol-javob, test hamda amaliy topshiriqlardan iborat bo‘lib, ular o‘quv elementini o‘zlashtirish natijalarni aniqlashga imkon beradi. Nazorat savollari va topshiriqlar qo‘yilgan maksadga muvofiq bo‘lish lozim.

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar va internet saytlari ro‘yhati**

**4.Asosiy va qo‘shimcha adabiyetlar xamda axborot manbalari**

**Prezident asarlari:**

1.Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
2.Shavkat Mirziyoyev «Xalqimizning roziligi bizning faholiyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston” 2018.
3.Shavkat Mirziyoyev “Bilimli avlod –buyuk kelajakning,t adbirkor xalq –faravon hayotning, do’stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir”. Toshkent – “O‘zbekiston” 2019.
4.Shavkat Mirziyoyev “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” . Toshkent – “O‘zbekiston” 2020

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
2. Shavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
3. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
4. Shavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.

**Internet saytlari**

1. www.google.co.uz
2. www.google.ru
3. www.biotehnolog.ru
4. www.cbio-info.ru
5. www.nplit.ru

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**PROFESSIONAL TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA’LIM DARAJASI**
**50910401-“Farmatsiya ishi” mutaxassisligi**

# FITOTERAPIYA FANIDAN

# MODUL DASTURI

| | |
|---|---|
| **Kvalifikatsiya:** | **Farmasevt assistenti** |
| **O'quv rejadagi tartib raqami:** | **3.07** |
| **Ajratilgan auditoriya soat:** | **144** |

**Toshkent-2023 yil**

1 Professional ta’limni rivojlantirish instituti Sog‘liqni saqlash yo‘nalishi bo‘yicha O‘quv- metodik Birlashmani 2023-yil 9-avgustdagi 9 sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan va TASDIQLASHGA TAQDIM ETILDI.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 25-sentyabrdagi 5-son yig‘ilishida ma’qullangan va Vazirlikning 2023-yil29-sentyabrdagi 438- son buyrug‘i bilan TASDIQLANDI VA JORIY ETILDI.

**Tuzuvchilar:**

S.A.Abduraxmonova — 2 – son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomli JSTining o‘qituvchilari ”Farmasiya”kafedra mudiri

M.J.Sidikxodjayeva — 2 – son Respublika Abu Ali Ibn Sino nomli JSTining “Fitoterapiya”fan o‘qituvchisi

Taqrizchilar : N.A.Farmonova — Toshkent farmasevtika instituti “Farmakognoziya” kafedrasi mudiri

**“FITOTERAPIYA” MODULIDAN SILLABUS**

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Modulning to‘liq nomi** | **Fitoterapiya** | | |
| **Modul kodi:** | Kredit xajmi: umumiy – 6 kredit<br>Shundan:<br>1.ON – 0.75 kredit (o‘tilishi shart);<br>2.YaN – 0.75 kredit (o‘tilishi shart) | **Modul o‘tilish davri:** | **ECTS value:** |
| **Ta’lim yo‘nalishi** | 0.71.05.00– Farmatsiya | 2-3 bosqich | |
| **Modulning davomiyligi** | hafta | | |
| **O‘quv soatlari hajmi:** | Jami soat: | 216 | |
| | Shuningdek: | 144 | |
| | Nazariy mashg‘ulot | 48 | |
| | Amaliy mashg‘ulot | 96 | |
| | Mustaqil ta’lim | 72 | |
| **O‘quv modulining statusi** | Klinik modullar | | |
| **O‘MPT nomi, manzili** | | | |
| **Kafedra nomi** | | | |
| **Mazkur kursning o‘qituvchilari haqida ma’lumot** | Ma’ruzachilarning F.I.Sh.<br>Laboratoriya mashg’ulot o‘tkazuvchilarning F.I.Sh. | | |
| **Mashg‘ulot vaqti va joyi** | | | |
| **Modulning mazmuni** | Fitoterapiyaning bemorlarga davo ko‘rsatishda farmakoterapiyada tutgan o‘rni, dorivor o‘simliklarning ishlatilishi, fitopreparatlarni olinishi, dori shakli xaqida bilim berish va ko‘nikmalarni shakllantirishga zamin yaratish. | | |
| **Prerekvizitlar** | Fitoterapiya lotin tili va farmasevtik terminologiya asoslari ,farmasevtik texnologiya, farmakologiya, farmakognoziya va botanika asoslari boshqa modullar bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi**..** | | |
| **Posrekvizitlar** | Fitoterapiya keyinchalik, sanoat farmatsiyasi , farmasevtik texnologiyasi, farmatsevtik ishlab chiqarish modullari uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi. | | |
| **Modulning maqsadi** | O‘quvchilarga fitoterapiyaning bemorlarga davo ko‘rsatishda farmakoterapiyada tutgan o‘rni, dorivor o‘simliklarning ishlatilishi, fitopreparatlarni olinishi, dori shakli xaqida bilim berish va ko‘nikmalarni shakllantirishga zamin yaratish.. | | |
| **Modulning vazifalari** | Fitoterapiya modul haqida tushuncha berish;<br>Talabalarga aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, o‘tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yuqumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari haqida bilim, ko‘nikma va | | |

| | |
|---|---|
| | malakani shakllantirishdir.<br>- tabiiy sharoitda yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan va kamayib ketayotgan muxim dorivor o‘simliklarni muxofaza qilish va ularning resurslaridan oqilona foydalanishni o‘rgatish;<br>- talabalarining nazariy ma’lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalami bajarish darajasiga qadamma-qadam o‘rgatish;<br>- zamonaviy informatsion texnologiyalaridan foydalangan xolda adabiyotlarning patent izlanishini olib bora olish uchun kerakli bilim va amaliy ko‘nikmalarini singdirishdan iborat. |
| **Modul bo‘yicha talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar** | **Talaba tasavvurga ega bo‘lishi kerak:**<br>Fitoterapiya dorivor o‘simliklar bilan davolash, dorivor o‘simliklardan olinadigan dori preparatlari va ishlatilishi haqida bilimga ega bo‘ladilar.<br>**Talaba bilishi shart:**<br>- dorivor o‘simlik mahsulotlarini butun, maydalangan, kukun xolida aniqlash, shuningdek dorivor o‘simlik briketlari, yig‘malarni taxlil qilish.<br>O‘zbekiston dorivor o‘simliklar xom ashyosi bazasi; dorivor o‘simlik mahsulotlari va qisman hayvonlardan olingan dori vositalari nomenklaturasi va tasnifini o‘rganish .<br>**Talaba quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:**<br>- Dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibi va tuzilishini bo‘lgan holda ulardan olinadigan dori preparatlarini ishlatish bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish.Hozirgi zamon modul yutuqlari asosida dorivor o‘simliklardan fitopreparatlar tayyorlash va ularni to‘g‘ri ishlatish haqida bilim va ko‘nikma xosil qilish. |
| **Ta’lim berish usullari** | Ma’ruzalar va laboratoriya mashg‘ulotlar |
| **Ta’minot** | Taqdimotlar, video ma’ruzalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, elektron kutubxonasiga joylashtirilgan resurslar (darslik, o‘quv-qo‘llanma, ma’ruza matni, o‘quv-uslubiy majmua, qo‘shimcha adabiyotlar), vaziyatli masalalar, testlar to‘plami, keyslar va boshqalar. |

**O‘qitish natijalari:**

**Modulni yakunlaganda talaba biladi**

Dorivor o‘simliklarni tuzilishi bo‘yicha tasniflashni

- Dorivor o‘simliklar mahsulotlarini tayyorlash (yig‘ish, quritish, saqlash) qoidalari;

-dorivor o‘simliklarni kimyoviy tarkibini :

Dorivor o‘simliklardan olinadigan dorivor preparatlarni;

- Dorivor o‘simliklarni tarkibi bo‘yicha ajratishni :

**O‘qitish natijalari:**

**Modul yakunlaganda talaba bajara oladi:**

- Dorivor o‘simlik mahsulotlarini qabul qilish qoidalari va amaliy me’yoriy hujjat asosida tahlil qilishni.
- Tarkibida yurak glikozidlar, saponinlar, antratsen unumlari, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, kumarinlar va yog‘lar bo‘lgan dorivor o‘simliklar mahsulotlarini standartlashni.
- Tarkibida yurak glikozidlar, saponinlar, antratsen unumlari, oshlovchi moddalar, flavonoidlar, kumarinlar va yog‘lar bo‘lgan dorivor o‘simliklar mahsulotlarini tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishi.

**1.O‘quv dasturiga qo‘yiladigan talablar**

| | |
|---|---|
| **O‘kuv dasturining nomi** | Fitoterapiya |
| **Ajratilgan soat** | - 144 (nazariy: 48, amaliy: 96, mustaqil talim 72 kredit: 6) |
| **Mavzular soni** | 13 ta |
| **Dasturning maqsadi** | O‘quvchilarga fitoterapiyaning bemorlarga davo ko‘rsatishda farmakoterapiyada tutgan o‘rni, dorivor o‘simliklarning ishlatilishi, fitopreparatlarni olinishi, dori shakli xaqida bilim berish va ko‘nikmalarni shakllantirishga zamin yaratish. |
| **O‘zlashtirish (o‘qitish natijalari )** | Hozirgi zamon fan yutuqlari asosida dorivor o‘simliklardan fitopreparatlar tayyorlash va ularni to‘g‘ri ishlatish haqida bilimga ega bo‘ladilar. Dorivor o‘simlik preparatlarini ishlatish usullarini turli omillarga bog‘liqligi xaqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. |
| **Bilim** | Fitoterapiya fani tibbiyot kollejlarining farmasevt assistenti mutaxassisligi bo‘yicha bilim beruvchi asosiy fanlardan biridir. Fitoterapiya dorivor o‘simliklar bilan davolash, dorivor o‘simliklardan olinadigan dori preparatlari va ishlatilishi haqida bilimga ega bo‘ladilar. |
| **Ko‘nikma** | Dorivor o‘simliklar kimyoviy tarkibi va tuzilishini bilgan holda ulardan olinadigan dori preparatlarini ishlatish bo‘yicha ko‘nikma hosil qilish.Hozirgi zamon fan yutuqlari asosida dorivor o‘simliklardan fitopreparatlar tayyorlash va ularni to‘g‘ri ishlatish haqida bilim va ko‘nikma xosil qilish. |
| **O‘quv rejaga muvofiq o‘zaro bog‘lik bo‘lgan fan nomi** | Fitoterapiya fani farmasevtik terminologiya va lotin tili ,dori turlari texnologiyasi, farmakologiya, farmakognoziya va botanika asoslari boshqa fanlar bilan bog‘liqlikda o‘rganiladi**.** |
| **O‘qitishni tashkiliy shakli** | N-nazariy ta’lim;<br>A-amaliy ta’lim;<br>MX-maxsus xonalarda mashg‘ulot ; |
| **Dasturga ko‘yilgan talab** | Majburiy |
| **O‘qitish tili** | Guruxga tayinlangan dars tili asosida (rus va o‘zbek) |
| **Baxolash tartibi** | Joriy baxolash tartibiga asoslanib (joriy nazorat oralik nazorat va yakuniy nazorat baholash tartibiga asoslangan **)** |
| **O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baxolash** | Yozma ,og‘zaki ,savol- javob ,munozara ,test ,amaliy topshiriq |

**2.O‘quv dasturi mazmuni**

| № | Mavzuning nomi | Mavzuning qisqacha mazmuni | xammasi | Jami | O‘ qitish ning tashki liy shakli | Mustaqil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **1.** | Fitoterapiya fani ahamiyati maksadi va vazifalari. Dorivor o‘simliklar preparatlarini qo‘llash tamoyillari | Fitoterapiya dorivor o‘simliklar ulardan tayyorlangan va olingan preparatlar bilan bemorlarni davolash to‘g‘risidagi fan.Fitoterapiya fani farmakologiyani ajralmas kismi | | | | |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | bo‘lgani uchun farmakologiya fani bilan bog‘lab o‘rganiladi. | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **2.** | Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar.Xalq tabobatining tarixi. | Xalq tabobatida ishlatiladigan ayrim dorivor o‘simliklar. Xalq tabobatining tarixi. Ibn Sinoning tibbiyotga bag‘ishlangan asarlari "Tib qonunlari" kitobi. Xalq tabobatining fitoterapiyada axamiyati va yangi fitopreparatlar topishda roli. Uning fitoterapiyada axamiyati va yangi fitopreparatlar topishda roli. Xalq tabobatida qadimdan ishlatib kelinayotgan ayrim dorivor o‘simliklar (sano, zirk, ro‘yan va b.) misolida tibbiyot amaliyotiga kiritilganligi va davo samarasi tasdiqlangani. Xushbuy xidga ega bulgan o‘simliklar, va ulardan fitochoylar tayyorlash. | **112** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **3.** | Markaziy nerv sistemasiga ta’sir etuvchi dorivor o‘simlik preparatlari. | MNSni rag‘batlantiruvchi dorivor o‘simliklar (xitoy choyi, kamfora daraxti, kuchala) va ularning fitopreparatlari. MNSni tormozlovchi dorivor o‘simliklar (valeriana, arslonquyruq, afsonak va b.) va ularning preparatlari. | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **4** | Yurak qon tomir tizimiga ta’sir etuvchi o‘simlik preparatlari. | Yurak faoliyatining yetishmasligida ishlatilidigan yurak glikozidlari saqlovchi o‘simliklar (digitalis, strofant, adonis, marvarid gul va b.) ni ishlatilishi. | **6** | **6** | **N-2 A-4** | **4** |
| **5** | Me’da – ichak va jigar faoliyatiga ta’sir etuvchi dorivor o‘simliklar. | Me’da ichak va jigar kasalliklari gastrit, oshkozon ichak yarasi,enterit, kolit, gepatit to‘g‘risida umumiy tushuncha. Ularning fitoterapiyasida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar: aloe, bo‘ymadoron, air, kashnich, kanakunjut, sano, rovach, frangula.Ovqat hazm bo‘lishini yaxshilovchi fitopreparatlar | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **6** | Peshob haydovchi dorivor o‘simliklar | Buyrak kasalliklari fitoterapiyasida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar:Aloe, erva, kiyik o‘ti, sachratq, qushtoron. Xalq tabobatida buyrak va o‘t-tosh | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | kasalligida ishlatiladigan dorivor o‘simliklardan tayerlangan damlamalar, siydik haydovchi fitopreparatlar. | | | | |
| **7** | Umumiy tonusni oshiruvchi dorivor o‘simliklar fitopreparatlari. | Umumiy tonusini oshiruvchi shifobaxsh o‘simliklar. Bu guruxga kiruvchi qadimdan ishlatib kelinayotgan dorivor o‘simliklarning (jenshen, levziya, radiola, xitoy limonniki, exinopanaks va b.) Umumiy tonusni oshiruvchi shifobaxsh o‘simliklar dori preparatlarini ishlatilishi | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
| **8** | Nafas a’zolariga ta’sir etuvchi dorivor o‘simliklar | Nafas a’zolari kasalliklarida ishlatiladigan dorivor o‘simliklar va ularning fitopreparatlari (afsonak, arpabodiyon, andiz, gulhayri, dalachoy, zubturum, maymunjon, marmarak, moychechak, qizilmiya, qizilcha va b.) va ularning fitopreparatlarining ishlatilishi. | **12** | **12** | **N-4 A-8** | **6** |
